



MILLIY TIKLANISHDAN-
MILLIY YUKSALISH SARI!





O'ZBEKISTON "MILLIY TIKLANISH" DEMOKRATIK PARTIYASINING

2020-2024-YILLARGA MO'LJALLANGAN SAYLOVOLDI DASTURI

2019-yil 1-noyabrda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining VI-Sezdida tasdiqlangan

BIZ UCHUN ENG MUHIMI –
XALQIMIZ FAROVONLIGI VA
O'ZBEKISTONNING YORQIN KELAJAGIDIR!



PARTIYANING BOSH SHIORI

“MILLIY TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI!”

MUQADDIMA

O'ZBEKISTON “MILLIY TIKLANISH”

DEMOKRATIK PARTIYASI:

~ Taraqqiyotning har qanday bosqichida milliy mustaqillik g'oyalariga sodiqligini namoyon etib, o'zbek davlatchiligi rivojining ko'p ming yillik tarixiy tajribasiga tayabib ish ko'rish;

~ O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ilgari surilgan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ustuvor shiorni doimiy e'tibor markazida saqlash;

~ milliy manfaatlarni himoya qilish va ilgari surish, barqaror rivojlanishni ta'minlash, mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotida madaniy va ma'naviy boyliklarni, boy tarixiy merosni asrab-avaylash va boyitish hamda insonparvarlik g'oyalarini hayotga tatbiq etish;

~ zamonaviy rivojlangan davlat qurish va ma'naviy barkamol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish barobarida milliy o'zligimizni, or-nomus va g'ururimizni, insoniy qadr-qimmatimizni, ona tilimizni, dinimizni, urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizni saqlab qolish va boyitish;

~ ajdodlarimiz ma'naviy merosi hamda e'tirof etilgan umuminsoniy qadriyatlar negizida milliy tarbiyani yuksaltirish va targ'ib etish;

~ jamiyatni o'zga madaniyatlar hisobiga emas, o'z urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizga asoslanib rivojlantirish;

~ milliy davlatchilik tartib-taomillari va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti asoslarini mustahkamlash,

milliy iqtisodiyotda erkin bozor munosabatlarini shakllantirish hamda sog'lom raqobat muhitini yaratish;

~ “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan muhim hayotiy tamoyilga amal qilish;

~ xalqimizning kelajakda emas, bugun yaxshi yashashi uchun sharoit yaratish;

~ inson hayoti va salomatligini nafaqat oila va jamiyat farovonligi, balki mamlakat barqarorligining muhim sharti deb belgilash;

~ jonajon Vatanimiz taraqqiyoti va jamiyat rivojida iqtisodiy va ma'naviy omillar, milliy va umuminsoniy qadriyatlар uyg'unligiga asoslanish;

~ davlat va jamiyat boshqaruvida demokratiya tammillarini yanada kuchaytirish;

~ shaxsning huquq va manfaatlarini kafolatlash, fikr va so'z erkinligini, qonun ustuvorligi hamda amaldagi ijrosini ta'minlash;

~ uzlusiz ta'lim bilan bir qatorda uzlusiz tarbiya tizimini shakllantirish, uzlusiz tarbiya va ta'lim uyg'unligini ta'minlash;

~ O'zbekiston xalqining milliy, an'anaviy va madaniy-ma'naviy qadriyatlarni chuqur e'zozlaydigan vatanparvar va halol shaxsni tarbiyalash;

~ barcha fuqarolarga, eng avvalo, yoshlarga o'z ustida ishlash, rivojlanish uchun sharoit va imkoniyat yaratish;

~ siyosiy kuch sifatida, O'zbekiston fuqarolarining jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeyidan qat'iy nazar, ixtiyoriy asosda birlashtirish va manfaatlarini faol ilgari surish;

~ aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy



faolligini oshirish, gender tengligi tamoyillarini ta'minlash;

~ ilm-fanning bunyodkorlik salohiyatidan unumli foy-dalanish, aholining umumiy ilmiy dunyoqarashi, madaniy saviyasini oshirish yo'lida keng ko'lamlı axborot tadbirlarini jadal uyushtirish;

~ Vatanimiz xalqini tashkil etuvchi turli etnik guruhlarning milliy-madaniy muhitga kirishishi, unda o'zini ishonchli his etishi uchun zarur shart-sharoitlarni takomillashtirish;

~ **ONA VATANIMIZ – O'ZBEKISTON VA BARCHA O'ZBEKISTONLIKALAR, XORIJDА ISTIQOMAT QILAYOTGAN, BIZ UCHUN DOIMO AZIZ BO'LGАН VATANDOSHLARIMIZ MANFAATLARIDAN KELIB CHIQIB O'ZINING 2020-2024-YILLARGA MO'LJALLANGAN SAYLOVOLDI DASTURINI E'LОН QILADI.**

Biz uchun **“Milliy tiklanish”** – milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar, ko'p asrlik tariximizni chuqur o'rganish, tiklash, qadrlash va targ'ib etish, har bir vatandoshimiz ongida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va mustahkamlashda jamiyatning hamjihatlikdagi harakatidir.

“Milliy yuksalish” – mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkuri, hayat darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko'tarish yo'lidagi harakatdir.

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!” shiorini jonajon O'zbekistonni qudratli davlat, O'zbekiston xalqini farovon el bo'lish yo'lida birlashtiruvchi da'vatdir.

O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi:

~ “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” shioriga tayangan “Insonni o'zgartirish orqali jamiyatni o'zgartirish”

g'oyasi bilan yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi islohotlarda faol ishtirok etishni;

~ ma'naviy-intellektual taraqqiyotga erishish uchun mamlakatni modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirishga sharoit yaratishni;

~ O'zbekistonni rivojlangan zamonaviy davlatga aylantirish, xalqaro miqyosdagi nufuzi va obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishni;

~ barcha sohada milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash uchun kurashishni;

~ milliy, madaniy va ma'naviy boyligimiz, boy tarixiy merosimiz, O'zbekiston xalqining urf-odat, an'ana va qadriyatlarini asrab-avaylash va ko'paytirishni;

~ O'zbekiston xalqining madaniy, an'anaviy va milliy-ma'naviy qadriyatlarini chuqur e'zozlaydigan vatanparvar insonlarni o'z safida birlashtirishni;

~ milliy-madaniy qadriyatlar hamda zamonaviy taraqqiyotning uyg'unligini ta'minlashni;

~ jamiyatda huquqiy, siyosiy ong va madaniyatni oshirish orqali qonun ustuvorligini ta'minlashni;

~ davlat va jamiyat o'tasida ishonchli muloqot, mansabdar shaxslarning fuqarolar oldidagi hisobdorligi va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi huquqlaridan samarali foydalanishini ta'minlashni o'zining asosiy maqsad va vazifalari sifatida belgilaydi.

O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi – ziylilar, shu jumladan, ilm-fan va ta'lif, madaniyat, san'at va axborot sohasi vakillari, kelajagimiz buniyodkorlari bo'lgan yoshlar, shuningdek, olimlar, tarbiyachi va o'qituvchilar, ijodkor va san'atkorlar, sportchilar, turizm, hunarmandchilik va xalq tabobati sohasi vakillarini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini,

shuningdek, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!” degan ustuvor shiorni qo'llab-quvvatlovchi vatanparvar va bунyodkor xalqimiz vakillarini o'z elektorati deb hisoblaydi.

Biz elektoratimizning intilish va orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishni, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishni muhim vazifalarimizdan deb bilamiz.

Partiyamiz mamlakatdagи siyosiy kuch sifatida barcha vakillik organlarida hal qiluvchi o'rirlarga ega bo'lish, Bosh vazir nomzodini taklif etish, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi orqali partiya g'oyalariga uyg'un bo'lgan qonun loyiҳalarini tashabbus qilish, hukumat a'zoligiga tavsiya etiladigan nomzodlarni ularning dasturlaridan kelib chiqqan holda qo'llab-quvvatlash yo'lidan boradi.

I. DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH, MA'NAVIY BARKAMOL FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

“DAVLAT VA XALQ MULOQOTI – FAROVONLIK GAROVIDIR”

Biz O'zbekistonni boy ma'naviy-ma'rifiy merosga ega, iqtisodiy rivojlangan, barqaror fuqarolik jamiyatiga tayangan, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari kafolatlangan, siyosiy nufuzli mamlakat sifatida ko'ramiz.

Partiya bu maqsadlarga erishishda asosiy manba bo'lgan xalqimizning ma'naviy va moddiy kamolotini hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Davlat boshqaruvi samadorligini oshirish, ochiqligi va shaffofigini ta'minlash, uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, davlat organlari faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish, davlat boshqaruviga kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish tarafdori.

Hokimiyat bo'g'inlarining faoliyati "Xalq davlat idoralariiga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan tamoyil asosida jamiyat bilan doimiy va tizimli muloqotni, davlatning fuqarolar bilan yaqin hamkorligini yo'lga qo'yish, davlat organlari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga asoslanadi.

Partiya "parlamentni – "xalq uyi"ga, deputatlarni – xalqimizning fidoyi xizmatchisiga aylantirish"ni amalda ta'minlashni asosiy vazifa, deb biladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi



va mahalliy Kengashlarga saylangan deputatlarining, eng avvalo, o'z saylovchilari bilan doimiy va uzuksiz aloqasini yo'lga qo'yish orqali xalqimizning muammolarini o'rganish, tahlil qilish, ularga yechim topish choralarini ko'radi.

1.1. Davlat hokimiysi tizimida Oliy Majlisning, shuningdek, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiylar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari rolini kuchaytirish sohasida:

- ~ Oliy Majlis palatalari, ijro hokimiysi organlari va sud hokimiysi o'ttasidagi aloqalarni yanada samarali yo'lga qo'yish;
- ~ Oliy Majlis palatalarining xalqaro hamkorligini, xususan, xorijiy davlatlarning parlamentlari va xalqaro parlament tashkilotlari bilan doimiy aloqalarini rivojlantirish;
- ~ "Xalq diplomatiyasi konsepsiysi" va "Parlament diplomatiyasi konsepsiysi"ni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- ~ Oliy Majlisning hukumat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishga oid vakolatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish, xususan, "elektron parlament", "elektron parlament nazorati", "parlament nazorati portalı"ni joriy etish;
- ~ jamiyat va davlat qurilishi jarayonida siyosiy partiylar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining faol ishtirokini ta'minlash;
- ~ saylovlarni majoritar va proporsional saylov tizimlarini uyg'unlashtirgan holda o'tkazish, ya'ni vakillik organlariga deputatlarning yarmini bir mandatli saylov okruglari, qolgan yarmini partiylar ro'yxati asosida shakllantirishni taklif etish;
- ~ davlat darajasidagi, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqishga fuqarolarni keng jalb etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

- ~ davlat va hududiy dasturlar loyihalarini barcha darajadagi deputatlarga, shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga ko'rib chiqish uchun majburiy taqdim etish va ularning takliflarini olish tizimini joriy etish;
- ~ Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tegishliligiga qarab siyosiy partiyalarga ekspertiza uchun yuborish amaliyotini joriy etish;
- ~ qabul qilingan qonunlarning samaradorligi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy oqibatlarining sotsiologik jihatdan o'rganilishini yo'lga qo'yish;
- ~ davlat va jamiyat boshqaruviga oid xalqaro reytinglarda ishtirok etishni kengaytirish, xususan, davlat siyosatiga ishonch reytinglarida keng ishtirok etish.

1.2. Xalq hokimiyatichilagini rivojlantirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatini takomillashtirish sohasida:

- ~ "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir", degan konstitutsiyaviy tamoyilni amalda ta'minlash choralarini ko'rish;
- ~ mahalliy davlat hokimiysi tizimida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining o'rni va rolini oshirish, ularning vakolatlarini aniq belgilash;
- ~ xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliy ijro hokimiysi organlari ustidan nazorat vakolatlarini yanada kengaytirish, xususan, mahalliy ijro organlarining ular oldidagi hisobdorligini oshirish;
- ~ mahalliy ijro organlari rahbarlarini lavozimga tayinlashdan oldin xalq deputatlari mahalliy Kengashlari muhokamasidan o'tish, unda o'zining aniq ko'rsatkichlarga

ega o'rta va uzoq muddatli dasturini deputatlarga taqdim etish amaliyotini joriy etish;

- ~ xalq deputatlari mahalliy Kengashlaridagi deputatlar va partiya guruhlari faoliyatini kuchaytirish, mahalliy Kengash raisining huquqiy maqomini aniq belgilash hamda mahalliy ijro hokimiyati faoliyati ustidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini qat'iy o'rnatish choralarini ko'rish;
- ~ mahalliy ijro hokimiyati rahbarini bir vaqtning o'zida xalq deputatlari mahalliy Kengashi raisi bo'lishini bosqichma-bosqich bekor qilish;
- ~ partianing barcha darajadagi vakillik organlari deputatlarining birgalikda, uzlusiz ish olib borishidan iborat tizimni yaratish.

1.3. Davlat boshqaruvi va davlat xizmatini yanada isloh etish sohasida:

- ~ davlat xizmatchilarining maqomini qonun darajasida mustahkamlash, davlat xizmatchisining bilim, malaka, qobiliyat va layoqatlilik talablari asosida obyektiv tanlanishi tizimini joriy etish, yosh milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ularni davlat xizmatiga tizimli tavsiya etish orqali "ijtimoiy lift"ni ta'minlash;
- ~ barcha davlat tashkilotlari va xizmatchilari faoliyatini baholash tizimini joriy etish;
- ~ davlat xizmatchilarining xizmat lavozimlarida harakatlanish modelini yaratish;
- ~ davlat xizmatchilarining idoralararo rotatsiyasini, shuningdek, tashkilotdagи ichki rotatsiyani keng joriy etish;
- ~ davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, davlat idoralari va rahbarlarining jamiyat va xalq oldida hisobdorligini oshirishga xizmat qiladigan islohotlarni qo'llab-quvvatlash;
- ~ markaziy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari

vakolatlarini mahalliy davlat hokimiysi va ijro organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish orqali ma'muriy buyruqbozlik, majlisbozlik, byurokratiyaga barham berish, ayni paytda, ularning mustaqilligini ta'minlash va mas'uliyatini oshirish;

~ avlat organlari bilan fuqarolar o'rtasida samarali muloqot tizimini yaratish orqali fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish samaradorligini oshirish;

~ davlat organlari va ularning mansabdon shaxslari faoliyatida sog'lom ma'naviy muhit va mafkuraviy immunitetni barqarorlashtirish, qonuniylikni ta'minlash, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish;

~ fuqarolarning davlat organlari faoliyati to'g'risidagi batafsil va ochiq axborotlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, bu bilan xalqning davlatga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlash;

~ davlat xizmatchilarining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, huquqlarini himoya qilish, moddiy rag'batlantirish tizimini kengaytirish, ayni paytda, ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish;

~ fuqarolarning ehtiyojlari, talab va istaklarini o'rganish, tahlil etishga yo'naltirilgan xolis sotsiologik taddiqotlar o'tkazish.

1.4. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini yanada oshirish, mamlakatimiz va xorijda keng targ'ib etish sohasida:

~ davlat tilini boyitish va yanada takomillashtirish, til madaniyatini, o'zaro muomala sifatini yuksaltirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish, rasmiy hamda ommaviy muomalada o'zbek adabiy tili me'yor va qoidalari buzilishining oldini oladigan aniq va



maqsadli ishlarni olib borish;

~ o'zbek tilini rivojlantirish, uning sofligi, foydalanish uchun qulay bo'lishi, iste'molda oson va ravon qo'llanilishini ta'minlash bo'yicha amaliy choralar ko'rish;

~ davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida hamda rasmiy doiralarda davlat tili qo'llanilishiga, shuningdek, qonun hujjatlari va idoraviy yozishmalarning to'liq davlat tilida yozilishiga erishish;

~ mamlakat ichkarisi va tashqarisida o'zbek tilini o'rganish uchun sharoit yaratish, shu jumladan, o'zbek tilini o'rgatishga yo'naltirilgan bepul onlayn platformalarni yaratishga ko'maklashish;

~ o'zbek tilidagi ma'lumotlar bazasini kengaytirish, jumladan, xorijiy tillardagi ilmiy-amaliy va kasbga oid kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilishni qo'llab-quvvatlash;

~ O'zbekistondan tashqarida istiqomat qiluvchi vatandoshlarimizning o'zbek tili va madaniyatiga bo'lgan hayotiy ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashish;

~ ommaviy axborot vositalarida, xususan, televideniye, radio va ko'chalarda reklamalar va boshqa tashqi yozuvlarning davlat tilida bo'lislini ta'minlash;

~ har yili keng jamoatchilik va davlat xizmatchilari o'rtaida o'zbek tili bo'yicha tanlovlар o'tkazish;

~ vatandoshlarimiz istiqomat qiladigan xorijiy mamlakatlarda o'zbek tilini o'rgatish va targ'ib qilish bo'yicha doimiy tadbirlar o'tkazish;

~ o'zbek tilining mukammal lug'atlarini ko'paytirish, o'zbek tilidagi elektron dasturlar yaratilishini rag'batlantirish hamda amalda qo'llanilishiga erishish;

~ o'zbek tilidagi internet milliy qidiruv tizimini yaratish, o'zbek tilidagi ilmiy, o'quv manbalarini o'z ichiga oluvchi

ochiq internet saytlarini ko'paytirish;

~ o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish, birinchi navbatda, O'zbekiston xalqini tashkil etuvchi boshqa millat vakillarining o'zbek tilini o'rganishini osonlashtiruvchi zamonaviy multimedia vositalariga asoslangan metodikalarni ommalashtirishga ko'maklashish;

~ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasidagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti qoshida Ilmiy tarjima markazini tashkil etish;

~ "Davlat tili haqida"gi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish.

II. MAMLAKATDA QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**“DAVLAT RIVOJI HAMDA JAMIYAT
FAROVONLIGIGA QONUNLARGA O'Z
VAQTIDA O'ZGARTISH VA
QO'SHIMCHALAR KIRITISH,
ULARNING TO'LIQ IJROSINI
TA'MINLASH ORQALI ERISHISH”**

*Q*onun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligi va fuqarolar huquq hamda erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash — jamiyatimiz uchun kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.

Demokratik jamiyatni shakllantirishni jadallashtirish va bu boradagi islohotlar muvaffaqiyati ko'p jihatdan fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga bog'liq. Partiya sud-huquq sohasida demokratik jamiyatning asosi va huquqiy tizim mukammalligi ko'rsatkichi bo'lgan fuqarolarda huquqiy ong va madaniyatni oshirishni o'zining asosiy vazifalaridan biri, deb hisoblaydi.

Partiya qonunlar ustuvorligini so'zsiz ta'minlash, jumladan, inson huquq va erkinliklari, xususiy mulk daxlsizligi, qonunlarning amaliy ijrosi, bir-biriga zid yoki takrorlanayotgan normalarga barham berish bo'yicha tizimli faoliyat olib boradi.

Partiya fuqarolarning huquqiy va siyosiy madaniyatini

yuksaltirishga ko'maklashishni o'zining sud-huquq sohasidagi muhim vazifasi deb biladi. Mamlakatda huquqiy ta'lif va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilim targ'ibotini yanada yaxshilashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar qabul qilinishini ma'qullaydi.

Davlat hokimiysi va boshqaruvinin organlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvini cheklashga qaratilgan aniq huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga intiladi.

Partiya qonunlardagi havolaki normalarni eng kam darajaga keltirish va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar sonini kamaytirish, ya'ni qonunlarning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishiga erishish jarayonida faol ishtirok etadi.

2.1. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada takomillashtirish, "Barqaror qonunchilik" konsepsiyasini ilgari surish sohasida:

- ~ huquqiy ta'lifni yanada yaxshilash, jamiyatda huquqiy bilimlarni targ'ib etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni qabul qilish;
- ~ huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga ishonchini mustahkamlash;
- ~ fuqarolarning xususiy mulkka oid huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;
- ~ fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, bu jarayonda sarsongarchilik, rasmiyatchilik va befarq munosabatga yo'l qo'yanlik uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash;
- ~ advokatura institutini rivojlantirish, jinoiy, ma'muriy, fuqarolik va iqtisodiy ishlarni ko'rib chiqishda advokatning mavqeysi va rolini oshirish;

- ~ surishtiruv, tergovga qadar tekshiruv, sud jarayonida advokat va prokuorning teng huquqliliginu tom ma'noda ta'minlash;
- ~ sud hokimiyati va sudyalarning gorizontal va vertikal mustaqilligini ta'minlash, ularning oylik ish haqlari boshqa hokimiyat organlari xodimlarining oyliklaridan kam bo'lmasligini ta'minlash;
- ~ jazoni ijo etish muassasalarini va boshqaruvini Adliya vazirligiga o'tkazish yoki mustaqil tizimga aylantirish masalasini keng muhokama qilish;
- ~ sud-huquq sohasini liberallashtirishda aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilishning huquqiy me'yorlarini takomillashtirish, sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bo'limgunga qadar tergov, surishtiruv organlari tomonidan shaxslarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda aybdor deb e'lon qilish, ularning shaxs sifatidagi huquqlarini poymol etish, fuqarolarga qiyonoqlar bilan noinsoniy, shafqatsiz muomala qilishni cheklaydigan aniq huquqiy mexanizmlarni yaratish;
- ~ Sudyalar oliy Kengashining mustaqilligini to'liq ta'minlash, sudyalar korpusini shakllantirishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, jumladan, tuman, shahar va viloyat sndlari sudyalarini tanlash va tayinlashda jamoatchilik fikrini inobatga olish tizimini joriy etish;
- ~ yoshlarga oid sud ishlarida jamoatchilik himoyachilarini sifatida jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokini keng joriy etish amaliyotini qo'llab-quvvatlash;
- ~ “Barqaror qonunchilik” konsepsiyasini amalda ta'minlash, ya’ni qonun hujjatlariga puxta ishlanmagan o’zgartish va qo’shimchalar kiritish, yangi qonun hujjatlarini asossiz qabul qilishga yo’l qo’ymaslik, shuningdek, qonun hujjatlarini uzoq yillardni ko’zlab qabul qilish amaliyotiga o’tish;

~ qonunosti hujjatlarini qabul qilishning qat'iy mezonlarini belgilash.

2.2. Aholining huquqiy, siyosiy ongi va madaniyatini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz kurashish sohasida:

~ huquqiy, siyosiy ong va madaniyatni umumjamoa madaniyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish;

~ davlat va xususiy tashkilotlar tomonidan ehtiyojmand aholiga onlayn yoki boshqa shakldagi bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimi, “Fuqarolik maslahat byurosi” kabi ko'ngillilar birlashmalarini tashkil etish tashabbusi bilan chiqish, “Yilning eng yaxshi huquqiy xayriyasi” nomli loyihani amalga oshirish;

~ har bir fuqaroning qonun hujjatlarini bilishi va ularga og'ishmay amal qilishiga oid chora-tadbirlarni belgilash;

~ qonunlarga rioya etish ko'nikmasini shakllantirishda oila, ta'lif-tarbiya maskanlari, mahalla, jamoatchilik institutlari imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan mexanizmlarni yaratish;

~ xalqimizning siyosiy jarayonlarda bevosita va bilvosita ishtirokini yuqori darajaga ko'tarish;

~ qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamalarida aholining faol ishtirokini ta'minlash;

~ korrupsiyaga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy va javobgarlikning muqarrarligi usullarini tanlash, odamlar ongida korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish.

2.3. Muruvvat, kechirimlilik, insonparvarlik va bag'rikenglik kabi oliyanob fazilatlarni sud amaliyotiga joriy etish sohasida:

- ~ jinoiy ishlarga oid qonunchilikni yanada liberal-lashtirish, ayrim jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish siyosatini, jinoiy jazolar ijrosi tartibini yengillashtirishni davom ettirish;
- ~ monopol faoliyat, shuningdek, tibbiyot sohasidagi qonunbuzilishlar, xususan, tibbiy yordam ko'rsatmaganlik, tashxis va davolash bo'yicha noto'g'ri ma'lumotnoma bergenlik va boshqa holatlar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilash;
- ~ ma'muriy sudlov ishlariga yarashtiruv institutini keng joriy etish;
- ~ xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan jinoyat huquqining zamonaviy institutlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, xususan, faqat jabrланuvchining arizasi mavjud bo'lgandagina qo'zg'atiladigan alohida jinoiy ishlar toifasini kengaytirish;
- ~ oila, meros, uy-joy da'vosi va maishiy turmushda vujudga keladigan boshqa nizolarni sudsiga hal etish tizimini rivojlantirish, shu jumladan, har qanday nizoni xalqimizga xos bo'lgan tinch yo'l bilan hal etishga intilish va murosa yo'lini izlash, ishlarni sudsiga hal etish institutlarini keng qo'llash orqali amaliyotda sud tartibida ko'rib chiqiladigan ishlarning ulushini kamaytirish;
- ~ sudyalarining ixtisoslashuvini saqlab qolgan holda tuman, shahar va viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan jinoiy, ma'muriy, fuqarolik va iqtisodiy sudlarni birlashtirish.

2.4. Qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash sohasida:

- ~ qonun hujjatlari loyihalarining huquqiy ekspertiza va korrupsiyaga qarshi ekspertizasini amalga oshirishni qonun bilan mustahkamlash;

- ~ to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlar qabul qilinishini ta'minlash, qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni qisqartirish, shuningdek, vazirlik, davlat qo'mitasi va idoralar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishni eng kam darajaga yetkazish va bu amaliyotni bosqichma-bosqich bekor qilish;
- ~ Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qonun loyihibalarini birinchi o'qishda qabul qilish hamda fraksiyalarda muhokama etishda ma'ruzachi sifatida deputat emas, balki qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlarning mansabdor shaxslari yoki mas'ul vakillari ishtirokini qonunchilikda mustahkamlash;
- ~ qonun ijodkorligi jarayoniga zamonaviy yonda-shuvlarni joriy etish maqsadida iqtisodiyot, savdo, sanoat, energetika, sog'liqni saqlash, turizm, logistika, transport, aviatsiya sohalariga oid qonun hujjatlarini xalqaro standartlar va rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligidagi uyg'unlashtirish;
- ~ qonun hujjatlari loyihibalarini manfaatdor tashkilotlar bilan kelishishning elektron tizimini yo'lga qo'yish;
- ~ qonunchilik tashabbusini ilgari surish borasida mavjud tartiblarni takomillashtirish, bunda tashabbusni xalq muammolarini yechishga qaratilganligiga, tegishli ilmiy yondashuvlar, aniq ijtimoiy so'rovlardan vositasida asoslashga e'tibor qaratish;
- ~ qonun loyihibalarini keng ommaga e'lon qilish, bildirilgan taklif va mulohazalarni to'liq o'rganishni yo'lga qo'yish.

III. MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

“XALQ BOY BO'LSA – MAMLAKAT HAM BOY, HAM QUDRATLI BO'LADI”

*P*artiya kuchli, barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishni o'zining ustuvor vazifasi deb biladi.

Iqtisodiy munosabatlarda har doim individual yondashuvni ta'minlash lozim deb hisoblaydi.

Partiya mamlakatda o'rta qatlamning ko'payishi tarafdori bo'lib, aholining o'rta qatlamida qanoat va shukronalik, boy qatlamida mas'uliyat va ma'naviy qadriyatlarni e'tirof etish, olıyanoblik kabi xislatlarni oshirishni targ'ib etadi. Aholining real daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, daromadlari bo'yicha tabaqlanish darajasini pasaytirishni qo'llaydi.

Davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini keskin qisqartirish hamda xususiy mulkni himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan islohotlarni jadallashtirishda tashabbuskorlik qiladi. Tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatiga noqonuniy aralashuvga qat'iy chek qo'yishni ta'minlash borasida amaliy takliflarni ilgari suradi.

Partiya milliy mahsulotlarimiz va brendlarmizning xorigga, salohiyatli xarid bozorlariga barqaror kirib borishini hayotiy zarurat, deb biladi.

Mamlakatimizda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni va xizmat ko'rsatish sohasini samarali qo'llab-quvvatlash, O'zbekistonda milliy manfaatlardan kelib chiqib olib borilayotgan faol tashqi iqtisodiy strategiyani yoqlaydi. Juhon bozorida “Made in Uzbekistan” milliy brendining obro'sini oshirish uchun faol harakat qiladi.

Shu bilan birga, partiya O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'z iste'molchilarimiz uchun qadrliroq bo'lishini targ'ib qiladigan tizimni shakllantirish zarur, deb hisoblaydi.

Partiya texnologik bazani modernizatsiyalash, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar, investitsiyalarni rag'batlantirish, ularning natijalarini tijoratlashtirish, budget, soliq hamda boshqa rag'batlantirish vositalari orqali intellektual mulkni kapitallashtirish chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Biz mamlakat iqtisodiyotida investitsiya muhitining yaxshilanishi tarafdorimiz. Investitsiyalar iqtisodiyotimizga, eng avvalo, qonunchilik kafolati orqali kirib kelishi lozim.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida tafovutni qisqartirish, mahalliy budget shakllanishi va taqsimlanishining huquqiy asoslarini takomillashtirish lozim.

Partiya iqtisodiyot sohasida soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish, davlat budgeti barqarorligini ta'minlash, mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda erkinlikni oshirish, davlat budgeti xarajatlari va budget defitsiti mo'tadilligini ta'minlash, inflatsiyani jilovlash va pul-kredit siyosati instrumentlarini ta'sirchaligini oshirish, moliyaviy bozor instrumentlarini ko'paytirishni iqtisodiyot rivojiga jiddiy turki beradi, deb hisoblaydi.

Raqobatbardosh milliy moliyaviy tizim yaratish, to'g'-ridan-to'g'ri investitsiya kirituvchilarni rag'batlantirish, ayrim mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar) uchun qo'shimcha qiymat va daromad solig'ini bekor qilish, bank va moliya tizimiga zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish.

3.1. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'r-satuvchilarning raqobatbardoshligini oshirish so-hasida:

- ~ “O'zbekistonda ishlab chiqarilgan” tamg'asi ostidagi mahsulotlar iste'molini targ'ib qiluvchi va qo'llab-quvvatlovchi tizimni shakllantirish;
- ~ xorijiy mahsulotlar o'rnini bosadigan va xorija sotiladigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- ~ ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishga yo'naltirilmagan xarajatlarni qisqartirish, yangi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- ~ mamlakatimiz poytaxti va hududlarni, shahar va qishloqlarni o'zaro uyg'un rivojlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda hududlar bo'yicha ayrim nomutanosibliklarga barham berish;
- ~ xalqimizning, ayniqsa, yoshlarning bevosita Vatanimizda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy sifatli kiyim-kechakka bo'lgan ehtiyojini qondirish, yengil va ixcham to'qimachilik korxonalari sonini ko'paytirish;
- ~ ishlab chiqarish sohasida sodda va qulay litsenziyalash tizimini joriy etish;
- ~ milliy bozorni sifati past, xalqaro andozalarga mos kelmaydigan mahsulotlardan (ishlar, xizmatlardan) muhofaza etishning huquqiy asoslarini kuchaytirish;
- ~ sanoat, transport, kommunikatsiya va boshqa ishlab chiqarish sohalarida, shuningdek, xizmat ko'rsatishda xususiy mulkning ulushini tobora oshirish;
- ~ xalqimizda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilayotgan mahsulotlardan foydalanish kayfiyati va ko'nikmasini shakllantirish.

3.2. Mamlakat iqtisodiyotida yetakchi bo'lgan yuqori texnologiyali va bazaviy tarmoqlarni jadal rivojlantirish sohasida:

- ~ milliy iqtisodiyot uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, temiryo'l va avtomobil yo'llari, elektr ta'minoti sifatini oshirish;
- ~ mamlakatda energiya infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish maqsadida yoqilg'i-energetika tarmog'i, jumladan, elektr, neft va gaz, atom energetikasi tarmoqlarini rivojlantirish va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirishni, energoresurslarni amal-dagi sotish tizimida daromad darajasidan kelib chiqib tabaqalashtirishni nazarda tutadigan islohotlarni amalgalashish;
- ~ mamlakat iqtisodiyotida yetakchi bo'lgan mashinasozlik, elektrotexnika, yengil sanoat bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish va servis sohalarida energiya manbalari, mavjud xomashyo va resurslardan samarali va erkin foydalanish, mazkur sohalarga investitsiyalar oqimini jalgan etishga shart-sharoit yaratish;
- ~ yurtimizda sanoatni mahalliylashtirish, sanoat ko-operatsiyasini yanada rivojlantirish hamda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan islohotlarni jadallashtirish;
- ~ qishloq xo'jaligini sanoatlashtirishni kuchaytirish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasini, qishloq xo'jaligiga yangi texnologiyalar, jumladan, "aqli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan islohotlarni amalgalashish;
- ~ qishloq xo'jaligida ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish, xususiy mulkchilik qismini

shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3.3. Milliy iqtisodiyotda milliy innovatsion tizim va texnologiyalarni rivojlantirish sohasida:

- ~ milliy iqtisodiyotga “raqamli iqtisodiyot”ni keng joriy etish, mamlakatda raqamli texnologiyalarga keng miqyosda o'tish mexanizmini ishlab chiqish;
- ~ mamlakatimizni yuqori tezlikda ishlaydigan internet tarmog'i bilan ta'minlash;
- ~ iqtisodiyotning barcha sohasida onlayn savdo, elektron xizmatlar, raqamli televideniye va mobil internet, masofaviy o'qitish, sanoat interneti (3D bosib chiqarish) va BigData texnologiyalarini jadal rivojlantirish uchun IT infratuzilmalarini yaratish;
- ~ iqtisodiyot tarmoqlaridagi texnologik qoloqlikni kamaytirish maqsadida institutlar, universitetlar va ishlab chiqarish o'rta sidagi uyg'unlik va hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;
- ~ yuqori saviyali texnologik bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb etish, innovatsion ishlanmalarni (nanotexnologiyalarni) amalga oshiradigan korxona va tashkilotlarni tashkil etishga keng imkoniyat yaratishni ta'minlash;
- ~ innovatsion biznesni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotda innovatsiyalarga talabni kengaytirish, texnologik raqobat va innovatsiyalar sohasida raqobat muhitini rivojlantirish;
- ~ kichik va o'rta innovatsion biznesni yaratish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, innovatsion biznesni tashkil etish va rivojlantirishdagi ma'muriy to'siqlarni qisqartirish, kichik va o'rta biznes innovatsiyalariga o'tish talablarini o'rganish, shu orqali

tadqiqotlar va ishlanmalar uchun davlat buyurtmalarini shakllantirish.

3.4. Milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishini qo'llab-quvvatlash, jumladan, eksportni rag'batlantirish sohasida:

- ~ keng ko'lamli bojxona islohotlarini amalga oshirish, jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdagi tartib-taomillar sonini qisqartirish, ayrim talab qilinadigan hujjalarni (ekspertiza, sertifikatlashtirishni) bekor qilish;
- ~ tashqi iqtisodiy faoliyatda tekshirish va nazoratni kamaytirish, tadbirkorlar va bojxona organlari xodimlari o'rtafiga aloqa yoxud munosabatlarni soddalashtirish;
- ~ eksport bilan shug'ullanadigan va import o'rnnini bosuvchi mahsulotlarni tayyorlovchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash.

3.5. Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash sohasida:

- shaxslar va tadbirkorlarga 2019-yilgacha bo'lgan davr uchun umumiyligi soliq amnistiyasini e'lon qilish;
- soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda erkinlik berish, davlat budgetining xarajatlari va budget defitsitining mo'tadilligini ta'minlash;
- iqtisodiyotda ichki jamg'armalarning o'sishi, kredit va investitsiya faolligi va umuman iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, inflatsiyani nazorat qilish uchun samarali pul-kredit siyosatini olib borish;
- bank va moliya tizimiga zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish, jumladan, mazkur sohada hozirgi kunda dunyoda jadal rivojlanayotgan an'anaviy moliya

tizimiga muqobil ravishda bank va tadbirkorlikning sherikchiligiga asoslangan kreditlash mexanizmini joriy etishga qaratilgan qonunchilik tashabbusini amalga oshirish;

— mamlakatda fond va kapital bozorlarini jadal rivojlantirish, milliy sug'urta tizimini tubdan isloh etish hamda ushbu sohani mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha tarmog'iga keng jalb va targ'ib qilish.



IV. IJTIMOIY SOHANI YANADA RIVOJLANTIRISH, MAMLAQATDA TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI TUBDAN ISLOH ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

“UZLUKSIZ TARBIYA VA TA'LIM – MUSTAHKAM JAMIYAT VA QUDRATLI DAVLAT POYDEVORI”

*A*holi turmush sifati va darajasini, yashash qulayliklari oshirish partyaning ijtimoiy sohada olib borayotgan faoliyatining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

Mustahkam tarbiya va ta'lism tizimi orqali inson kapitalini rivojlanadirish, kam xarajat va tez rivojlanish uchun innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash.

Partiya bilimli, mas'uliyatli va salohiyatli, erkin fikrlaydigan, o'zini va o'zgalarni hurmat qiladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli avlodni tarbiyalash tizimi mamlakatimizning kelajagini belgilab beradi, deb hisoblaydi.

Partiya demokratik tamoyillarni ta'minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy sohalarda gender tengligini e'tirof etgan holda, ayollar va erkaklarning o'ziga xos ehtiyojlarini e'tiborga oladigan muhitda o'qish va ishlashlari uchun sharoit yaratilishiga katta ahamiyat beradi.

Oila – jamiyatning ustuni, ayol oilaning ustuni ekanini e'tirof etgan holda ayollarning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun qonunchilikka o'zgartishlar kiritish kerak, deb hisoblaydi.

Partiya oilalarda ijtimoiy va axloqiy muhitni o'rganish, muloqotlar olib borish orqali mavjud muammolarni hal



etish bo'yicha samarali tizimni qo'llab-quvvatlaydi. Oilada va oilaviy qadriyatlarda an'anaviy munosabatlarni saqlab qolish hamda mustahkamlash tarafdiridir.

Partiya mamlakatimizda tarbiya va ta'lif tizimini isloh qilish, uning sifatini oshirish bo'yicha faol ish olib boradi. Buning uchun tizimni izchil takomillashtirib borishni muhim zarurat, deb biladi.

Mamlakatimizda boshlangan yangi davr ta'lif sohasiga ham aniq va qat'iy talablar qo'ymoqda. Partiya amaldagi ta'lif tizimida tarbiyaning o'rnnini yetarli emas deb hisoblaydi. "Oila – maktabgacha ta'lif – maktab" davrini o'z ichiga olgan, tarbiyani ustuvor hisoblaydigan tarbiya va ta'lif tizimi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadigan, bilimli, erkin fikrlaydigan, halol va mas'uliyatli insonni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida ko'rishi kerak. Tizimning natijadorligi oila, maktabgacha ta'lif tashkilotlari va umumta'lif mакtablaridagi mavjud muammolarning tizimli bartaraf etilishini taqozo qiladi.

Partiya ta'lif tizimida ayrim darsliklarni maqbullashtirish hisobiga 1-sinfdan 11-sinfgacha o'qitiladigan "Tarbiya" darsligini joriy etish, xalqimizning tarixi hamda ma'nnaviy qadriyatlari haqida bilim beruvchi o'zbek tili va adabiyoti, O'zbekiston tarixi fanlari hajmini ko'paytirishni qo'llab-quvvatlaydi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari va umumta'lif mакtablarida bolalarning jismoniy tarbiya orqali sog'lom rivojlanishini ta'minlash milliy genofondni yaxshilash masalasi sifatida ko'rilihini ma'qullaydi.

Mamlakatimiz fuqarolari xorij ta'lif muassasalaridan olgan diplomini nostrifikatsiya qilish jarayonlarini shaf-foflashtirish va osonlashtirish bo'yicha aniq vazifalarni belgilaydi.

Partiya o`z elektorati bo`lgan olimlar va pedagoglarning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning jamiyatdagi hurmatini oshirishni muhim masalalardan biri, deb biladi.

4.1. Aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, turmush sifatini oshirish sohasida:

~ odamlarning turmush tarzi, birinchi navbatda, qishloq aholisi obodligi va farovonligini ta'minlash, ularning turmush madaniyatini oshirish;

~ rivojlanishning ustuvor sohasi sifatida uy-joy qurilishi va infratuzilmani qo'llab-quvvatlash, yosh oilalarga qulay, uzoq muddatli ipoteka kreditlari ajratilishi, ular uchun uy-joy qurilishiga doir davlat dasturi bajarilishining bundan keyin ham tizimli ravishda davom ettirilishiga ko'maklashish;

~ qurilish va bezak ishlarida eng yaxshi xorijiy tajriba va milliy me'morchilik an'analarini uyg'unlashtirish, tarixiy shaharlarni qayta ta'mirlashga qaratilgan yirik loyihalarni amalga oshirish;

~ yo'lovchilarga, jumladan, mamlakatimizning olis va yetib borish qiyin bo`lgan joylari aholisiga transport xizmati tizimini yaxshilash;

~ aholining elektorat qismi bandligi, birinchi navbatda, xotin-qizlar va yoshlar o'ttasida hunarmandchilik, oilaviy tadbirdorlik, kasanachilikni rivojlantirish evaziga ularni ish bilan ta'minlashni kengaytirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish;

~ xalq tabobatini rivojlantirishning istiqbolli rejalarini ishlab chiqish hamda uni zamonaviy tibbiyot darajasiga yetkazishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy choralarни ko'rish;

~ dori-darmon vositalari bilan savdo qilish tizimini tubdan isloh etish, sifatini oshirish va narxini kamaytirish,



jumladan, davlat tibbiyot muassasalariga dori-darmon vositalarini sotuvchi tomonidan har qanday tadbirkorlik subyekti emas, balki o'sha mahsulotni ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqaruvchining vakili bo'lishi shartligini qonuniy mustahkamlash;

- tibbiyot hamda farmatsevtika sohasini tubdan isloq qilish, sog'liqni saqlashda tibbiy profilaktikaning o'rmini oshirib borish, shu jumladan, aholining tibbiy madaniyatini oshirish bo'yicha islohotlarni jadallashtirish;

- tibbiyotning birlamchi profilaktika tizimini yanada rivojlantirish, bunda birlamchi profilaktika tizimida xizmat ko'rsatadigan xodimlarning moddiy manfaatdorligini oshirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

- madaniyat muassasalari, "Barkamol avlod" bolalar markazlari, musiqa va san'at makteblari, shu jumladan, olis va borish qiyin bo'lgan qishloq joylarni rivojlantirish uchun budgetdan mablag' ajratishni ko'paytirish;

- jismonan va ruhan sog'lom yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, bolalar va yoshlarning keng ko'lamda sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, maktab o'quvchilarining xalqaro musobaqalarda ishtiroy etishiga ko'maklashish, milliy sport turlarini qayta tiklash;

- ijtimoiy xizmatlar, jumladan, kommunal xizmatlar uchun toifalashgan va individual to'lovlar tizimini tashabbus qilish, ya'ni to'lovchining to'lov qobiliyati, kasbi va ijtimoiy ahvoldidan kelib chiqishga asoslangan qoidalarni joriy etish;

- aniq va tabiiy fanlarni chuqur o'rgatishga ixtisoslashtirilgan makteblarni yanada ko'paytirish, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilarning xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtiroy etishini qo'llab-quvvatlash.

4.2. Jamiyatda oila institutini va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash sohasida:

- ~ jamiyatda mustahkam oilalar bo'lishini qat'iy ta'minlash, oilaviy ajralishlarni keskin kamaytirish va oldini olishga qaratilgan ilmiy asoslangan ijtimoiy-huquqiy choralarni belgilash;
- ~ oilaviy hamjihatlik, keksalarga hurmat va bolalarga g'amxo'rlik kabi oilaviy an'ana va qadriyatlarni targ'ib etish va ta'minlash;
- ~ o'zbek oilasiga xos odob-axloqni mustahkamlash va aksincha milliy mentalitetimizga mutloq yot bo'lgan turli xil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning rolini kuchaytirish, oilaning ma'nnaviy-huquqiy muammolarini yechish, tibbiy savodxonligi va madaniyatini oshirish, barqaror turmush tarzi, reproduktiv salomatlikka qaratilgan tarbiyaviy ishlarni jadallashtirish;
- ~ jismonan sog'lom va har tomonlama barkamol yangi avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalash maqsadida yosh oilalarga g'amxo'rlikni oshirish, ularning ijtimoiy-huquqiy muhofazasini kuchaytirish, sog'lom va mustahkam oilalar sonini yanada ko'paytirishga ko'maklashish;
- ~ oilalar hayotida hamon saqlanib qolayotgan noxush holatlar, xususan, to'y marosimlarini o'ta dabdabali qilib o'tkazish va isrofgarchilikka asoslangan boshqa tad-birlarga barham berishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirish;
- ~ yoshlar o'rtasida an'anaviy oilaviy hayot, oilada shaxslararo munosabatlarni qadriyat darajasida qabul qilishga o'rgatish bilan bog'liq targ'ibot ishlarini kuchaytirish;
- ~ fuqarolarga, ayniqsa, xotin-qizlarga moslashuvchan ish vaqtি oralig'ini belgilashni joriy etish, ayollarning oilada ko'proq bo'lishlari uchun sharoit yaratish.



4.3. Gender xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ijtimoiy himoyani mustahkamlash sohasida:

- ~ ayollarning oiladan, farzand tarbiyasidan ajralmagan holda hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqachilik bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish va rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish;
- ~ xotin-qizlarning ijtimoiy muammolarini hal etishning konstruktiv tizimini joriy etish;
- ~ jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni ijtimoiy reabilitatsiya va himoya qilish borasidagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yish;
- ~ ma'lum sabablar bilan uzoq vaqt xorijda bo'lib qaytgan ayol va erkaklarni oilasiga, vataniga moslashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda ko'maklashish;
- ~ ajrim oqibatida uy-joysiz qolgan ayollar va ularning farzandlari manfaatlarini himoya qilish;
- ~ yosh oilalar bandligini ta'minlashda erkak va ayollarning mas'uliyatini barobar oshirishga erishish;
- ~ xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash;
- ~ qishloq joylardagi ayollar va yosh qizlarni oilaviy, xususiy tadbirkorlikka hamda hunarmandchilikka ko'proq jalb etish, qo'llab-quvvatlash maqsadida hamkorlikni keng yo'lga qo'yish;
- ~ oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlash-tirishda erkaklar va xotin-qizlar bilan yakka tartibda ishlash tizimini yo'lga qo'yish;
- ~ ta'limga global hamkorlik tamoyiliga asosan oliy ta'llim muassasalarining rivojlanish konsepsiyasida mutaxassislar tayyorlashning barcha faoliyat sohalarida



gender tengsizligidan xalos bo'lish va gender tengligining ta'minlanishini aks ettirish;

~ oliy ta'lif muassasasiga kirishdan oldin maktab o'quvchilari uchun kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda qizlar uchun STEAMga (ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika), o'g'il bolalar uchun pedagoglik kasbiga yo'naltiruvchi fanlarni o'qitish va kelajakda ushbu yo'nalishlarda faoliyat olib borishlarini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni joriy etish;

~ o'qituvchilik kasbini ayollar kabi erkaklar ham hissa qo'shishi talab qilinadigan jamiyat uchun foydali xizmat turi sifatida targ'ib qilish orqali yigitlarni o'qituvchilik kasbiga jalb etish;

~ xotin-qizlar va bolalarning ommaviy jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari, sanatoriylarda davolanishlari, dam olishlarini rejalashtirish va tashkillashtirishda ko'maklashish.

4.4. Mahalla tizimini yanada takomillashtirish, uning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini mustahkamlash sohasida:

~ fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini o'ziga xos bo'limgan vazifalardan xalos etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mustaqilligini kuchaytirish, mahallaning, ayniqsa, ezgu urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish, oilada sog'lom muhitni shakllantirish borasidagi faoliyati samaradorligini oshirish;

~ mahallaning mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni hal etishda, milliy va ma'naviy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni tiklash hamda rivojlantirishda fuqarolarning

keng ishtirokini ta'minlaydigan institut sifatidagi faoliyatini kuchaytirish;

- ~ mahallaning fuqarolar, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ijtimoiy sohadagi ishlarning samaradorligini oshirish, joylarda jamoat xavfsizligi va huquq-tartibotni yaxshilash, boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bilan bog'liq masalalarni hal etishdagini sa'y-harakatlarini faollashtirish;
- ~ mahalla institutini moliyalashtirish tizimini, jumladan, mahalla raisi (oqsoqol) va a'zolariga haq to'lash tizimini qayta ko'rib chiqish, ularning mahalliy hokimiyat idoralaridan mustaqilligini ta'minlash, mahallani ma'muriy hududiy birlik sifatida belgilash.

4.5. Fan va ta'lif tizimini isloh etish, mamlakatimiz aholisining oliy ta'limga qamrovini bosqichma-bosqich 50 foizga chiqarish sohasida:

- ~ mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 110 dan ortiq oliy ta'lif muassasalari va ularning filiallari sonini ilmiy salohiyat, moddiy-texnik bazasiga muvofiq 150 taga yetkazishni qo'llab-quvvatlash;
- ~ falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini olish tartibini soddalashtirish hisobiga mamlakatimizda falsafa doktori (PhD) va fan doktorlaridan (DSc) iborat bo'lgan pedagoglar sonini ikki barobarga yetkazishga ko'maklashish;
- ~ jahon ta'lif va ilmiy hamjamiyatiga integratsiya-lashish, oliy ta'lif muassasalarida ixtisoslashgan tor doiradagi mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish;
- ~ xorijiy ilmiy va amaliy adabiyotlarni doimiy ravishda davlat tiliga tarjima qilish tizimini yaratish, ilmiy daraja va unvonlar olishni soddalashtirish, ixtisoslashgan ilmiy

kengashlar soni va sifatini oshirish, ularning a'zolariga haq to'lash tartibini joriy qilish;

~ oliv ta'limga to'lov-kontrakt asosida o'qishga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy istiqbolli ilm-fan yutuqlarini joriy etish, mamlakatimizda ilm-fanni yanada rivojlantirish, ilmiy faoliyatga iste'dodli, qobiliyatli yoshlarni jalb etish orqali yuqori bilim-malakali jamiyatni shakllantirishga ko'maklashish;

~ ta'limning masofaviy, kechki, sirtqi turlarini keng joriy qilish, oliv ta'lim muassasalarining bosqichma-bosqich mustaqillikka erishishini qo'llab-quvvatlash;

~ ta'limning magistratura bosqichiga o'qishga qabul qilish tizimini tubdan isloh etish, qabul jarayoniga subyektiv yondashuvlarni bekor qilish;

~ oliv o'quv yurtidan keyingi ta'limga qamrovni ko'paytirish, xususan, tayanch doktoranturaga qabul kvotalarini oshirish;

~ xususiy ta'lim muassasalari, ayniqsa, xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumta'lim maktablarida tarbiya va ta'limning milliy qadriyatlar, ma'naviy mezonlarimizga uyg'unligini ta'minlash bo'yicha nazoratni kuchaytirish;

~ mehnat bozorining bugungi va istiqboldagi ehtiyojlariغا mos malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

~ ta'lim olish va o'qitish sifatini baholashda xalqaro standartlarni joriy etish;

~ chekka qishloqlardagi ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

~ oliv ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy tadqiqot institutlari huzurida ilmiy-amaliy ixtisoslashtirilgan labo-



ratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari, texnoparklar tashkil etish;

— ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish;

— mактабгача та'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va mazkur muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarni mактабгача та'lim muassasalariga qamrab olish darajasini oshirish, pedagog va mutaxassislar malakasini yuksaltirish;

— pedagoglarni tanlash va tayyorlash tizimini tubdan isloh etish. Ushbu yo'nalishda psixologik test va ijodiy imtihonlarni joriy qilish. Oliy ta'lim tizimida "Mактабгача bo'lgan davrda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish" va "Maktabda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish" ixtisosliklarini joriy qilish;

— ota-onva bolalarni ijtimoiy hayotga, shuningdek, mактабгача та'lim bosqichigacha tayyorlashga qaratilgan "Yosh ota-onalar maktabi" va "Oilada tarbiyaviy ishlarni tashkil etish" maxsus kurslari ochilishini qo'llab-quvvatlash;

— "Fan – ta'lim – ishlab chiqarish – innovatsiya integratsiyasi"ga to'liq erishish, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi professor-o'qituvchilarning ishlab chiqarish va amaliyat bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash, ularning amaliy tajriba va ko'nikmalarini oshirish;

— ta'lim muhiti xavfsizligini ta'minlash va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy harakatlarni kuchaytirish orqali yoshlarning o'z intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni ta'minlash;

- ~ maktabgacha ta'lim, məktəb, kollej və oliy ta'limda elektron ta'lim resurslarını yanada takomillashtırish, shuningdek, mahalliy və jahon elektron ta'lim resurslariga kirish imkoniyatını ta'minlash;
- ~ o'qituvchi va ustozlar maqomini oshirish, ijtimoiy muhofazasını kuchaytirish, ular uchun qulay, ortiqcha qog'ozbozlik va rasmiyatçılıkdan xoli mehnat sharoitlarini yaratish.

V. TASHQI SIYOSAT, XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA USTUVOR YO'NALISHLAR

“MILLIY MANFAATGA TAYANGAN TASHQI SIYOSAT – TINCHLIK VA BARQARORLIK ASOSI”

*P*artiya O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati milliy davlatchilik manfaatlari ustuvorligiga, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha nizoli masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki harbiy tahdiddan tiyilish, chegaralar daxlsizligi va xalqaro huquqning boshqa me'yorlariga og'ishmay amal qilish kabi tamoyillarga asoslanganligini qo'llab-quvvatlaydi.

Partiya jahon moddiy va nomoddiy merosining ajralmas bo'lagi hisoblangan O'zbekiston xalqining madaniy, an'anaviy va milliy-ma'naviy qadriyatlarini dunyoga taranum etish, shuningdek, buyuk alloma va mutafakkirlar yurti, ulkan va noyob boyliklar, iqtisodiy va aqliy salohiyatlar egasi bo'lgan jonajon O'zbekistonimizning xalqaro miqyosdagi nufuzi va obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish yo'lida faoliyat olib borishni o'zining ustuvor vazifasi, deb biladi.

Jahon hamjamiyatini O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy sohalarda erishayotgan yutuqlari bilan keng miqyosda tanishtirish bo'yicha tegishli dasturlarni ishlab chiqish, shu jumladan, bu borada milliy va xorijdagi nufuzli ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanishni muhim, deb hisoblaydi.

Partiya mamlakatimizda millatlararo munosabatlar sohasiga alohida e'tibor qaratadi. Bag'rikenglik va insonparvarlikni keng targ'ib etish, millatlararo va konfesiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashni davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri, deb biladi.

Partiya yurtimizda millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolar ongida ko'p millatli bir oila tuyg'usini mustahkamlash bo'yicha "O'zbekiston – umumiy uyimiz" g'oyasini singdirishni izchil davom ettiradi.

Partiya O'zbekistonning ijobiy imijini ko'tarishga xizmat qiladigan milliy va xalqaro loyihibar, madaniy-ma'rifiy, ilmiy va iqtisodiy tadbirdarlari muntazam ravishda tizimli o'tkazish bo'yicha tashabbuslarni ilgari suradi.

Biz Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha davlatlar bilan istisnosiz hamma masala bo'yicha oqilona murosa yo'llini tanlaymiz, xususan, partiyamiz suv resurslari borasida BMT shafeligidagi mintaqaga mamlakatlari manfaatlarini hisobga olgan holda yondashish zarurligini ta'kidlaydi. Mintaqadagi ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan barcha konstruktiv sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Terrorizm bugungi kunda jahon hamjamiatiga real xavf tug'dirayotganligi bois, uning salbiy ta'siridan yoshlarni himoya qilishga qaratilgan davlat dasturlarini real holatni inobatga olgan holda takomillashtirish choralarini ko'radi.

Partiya iqtisodiy integratsiya va milliy manfaatlar himoyasiga ko'maklashish, konfessiyalararo, madaniyat-



lararo muloqotni yo'lga qo'yish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirishga qaratilgan faol tashqi siyosat yuritish tarafdiridir.

5.1. Faol va manfaatli tashqi siyosat olib borishni rivojlantirish sohasida:

- ~ milliy manfaatlarni har doim qat'iy himoya qilish, O'zbekistonning tub manfaatlari hamda xalqimiz uchun foydali bo'limgan ikki yoki ko'p tomonlama hamkorlikdan tiyilish;
- ~ O'zbekiston xalqining ko'p yillik davlatchilik asoslari, madaniyati va san'ati yutuqlarini keng miqyosda targ'ib etish, O'zbekistonning xalqaro maydonidagi ijobiy imijini mustahkamlash;
- ~ boshqa davlatlar tomonidan uyushtiriladigan axborot xurujlariga qarshi samarali kurashni ta'minlash;
- ~ O'zbekistonning ayrim sheriklar va mamlakatlar guruhiga bog'liqligini kamaytirish maqsadida iqtisodiy, texnologik, transport va boshqa xildagi aloqalarni keng ko'lamda diversifikasiya qilish;
- ~ mamlakatimizning ishonchli, siyosiy va savdo-iqtisodiy sohalarda mas'uliyatli sherik sifatidagi xalqaro imijini mustahkamlash;
- ~ yaqin qo'shnimiz bo'lgan Afg'oniston bilan har tomonlama aloqalarni rivojlantirish, tarixiy, madaniy aloqalarni tiklash, adiblar, ijod ahli, yoshlar muloqotlarini muntazam ravishda yo'lga qo'yish, shuning barobarida, Afg'onistonda tinchlikni o'rnatish jarayonlariga ko'maklashish borasidagi tashhabbuslarni qo'llab-quvvatlash;
- ~ qo'shni davlatlar bilan do'stlik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlik munosabatlarini yanada mustahkamlash;

~ tashqi siyosat sohasida xalqaro huquqning umum-e'tirof etilgan normalariga amal qilish va bunda milliy manfaatlarni himoya qilish.

5.2. O'zbekistondan tashqarida istiqomat qilayotgan yoki faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimiz hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish sohasida:

~ mamlakatimiz fuqarosi, u qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston va uning diplomatik xizmatlari tomonidan himoyalanishini kuchaytirish, shuningdek, sohaga aloqador xalqaro konvensiyalarga qo'shilish;

~ xorijiy mamlakatlardagi o'zbek diasporalari bilan yaqin muloqotda bo'lish hamda ular bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;

~ xorijda yashayotgan hamyurtlarimiz, o'qiyotgan O'zbekiston yoshlari bilan doimiy, uzviy va yaqin aloqani yo'lga qo'yish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilishni kafolatlash;

~ vatandoshlarimizni xorijiy davlatlarda qonuniy yashash va mehnat qilishga oid ishonchli huquqiy axborot bilan ta'minlash, ixtisoslashgan davlat huquqiy maslahat xizmatlarini tashkil etish;

~ O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi yangi elchixonalarini, konsullik xizmatlarini va vakolatxonalarini ochish tashabbusi bilan chiqish, shuningdek, ularning vatandoshlarimiz haq-huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakolatlari, imkoniyatlarini kengaytirish, ayni paytda mas'uliyatini oshirish;

~ vatandoshlarimizning milliy madaniyatimiz, ma'naviyatimiz, dinimiz, urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizga sodiqligini saqlab qolish maqsadida xorijiy davlatlarda



ular ishtirokidagi turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish;

~ vatandoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish holati yuzasidan Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, Ichki ishlar vazirligi va boshqa mutasaddi tashkilotlarning Oliy Majlis palatalariga muntazam hisobot berish tizimini joriy etish.

5.3. Millat genofondini saqlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda jahon bozoridan munosib o'rın egallash sohasida:

~ millat genofondini saqlashni, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni yanada kuchaytirish, aholining ovqatlanish xilma-xilligini kengaytirish;

~ millat genofondini saqlash maqsadida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, maktabgacha ta'lif tashkilotlari va umumta'lif maktablarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish uchun yetarli sharoitlarni yaratish, ixtisoslashtirilgan sport maktablari sonini oshirish, yuqori sinf o'quvchilari orasidan sport maktablari uchun seleksiya ishlarini kuchaytirish;

~ mamlakatimizda sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va bunda genlarni modifikatsiya qilish usulidan foydalanishni imkon qadar cheklash;

~ mamlakatimizning shahar va qishloqlarida oziq-ovqat mahsulotlari narxi keskin oshib ketishining oldini olish, oziq-ovqat mahsulotlari narxi aholining to'lov qobiлиyatiga mosligini ta'minlashga oid tashabbuslarni amalga oshirish;

~ xalqaro va xorijiy davlatlar bozorlarida O'zbekiston mahsulotlari xaridorgirligini oshirish choralarini ko'rish;

- ~ xalqaro bozorlar faoliyatini doimiy monitoring qilib borish, dehqonlarimiz va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tezkor axborot bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlash;
- ~ “Made in Uzbekistan” – O'zbekiston mahsulotlarining jahon bozoriga chiqishini ta'minlash choralarini ko'rish;
- ~ O'zbekistondagi logistika tashkilotlarining xalqaro logistika tashkilotlari bilan yaqin hamkorligi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ~ qishloq xo'jaligidagi oziq-ovqat mahsulotlari yetka-zuvchilar faoliyatini rag'batlantirish tizimini yaratish va joriy etish;
- ~ chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik va baliqchilikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash.

5.4. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida:

- ~ millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, O'zbekiston xalqi va barcha fuqarolarning erkin, tinch va badavlat umr kechirishi hamda birdamligini mustahkamlash;
- ~ O'zbekiston fuqarolarini millatlararo hurmat, do'stlik va ahillik, vatanparvarlik, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyat va daxldorlik tuyg'usi atrofida jipslashtirish;
- ~ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, Islom sivilizatsiyasi markazi va Islom akademiyasi bilan hamkorlikda ishslash;
- ~ O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan va BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” rezolutsiyasini amaliyatga tatbiq etish;



- ~ “Jaholatga qarshi — ma'rifat” shiori ostida muqaddas islom dinining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini, ma'rifiy islomni targ'ib qilish, yoshlarimiz ongiga singdirish;
- ~ azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash;
- ~ buyuk ajdodlarimiz bo'lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ko'p qirrali diniy-ma'naviy merosini, ularning butunjahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashtirish.

5.5. Milliy taraqqiyot g'oyasini amalga oshirish maqsadiga yo'naltirilgan yagona tashqi iqtisodiy siyosatning eng muhim vazifalari sohasida:

- ~ O'zbekistonning jahon hamjamiatida ishonchli, mas'uliyatli siyosiy va savdo-iqtisodiy hamkor sifatidagi obro'-e'tibori va ijobjiy imijini mustahkamlash;
- ~ O'zbekistonning xavfsizlik, siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi xalqaro tashabbuslari hamda mamlakatning mintaqaviy va global rivojlanish pozitsiyasi va yondashuvlarini faol ilgari surish;
- ~ xorijiy bozorlarda o'zbek biznesi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyalari tizimida mahalliy kompaniyalar ishtirokini ta'minlash;
- ~ O'zbekistonning jozibadorligi – xalq madaniyati, san'ati, urf-odat, an'ana va qadriyatlar, turmush tarzidan tashqi siyosat, tashqi iqtisodiy sohalardagi strategik maqsadlarga erishish yo'lida keng foydalanish;
- ~ xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish, xalqimizning

madaniy-tarixiy va ma'naviy merosini targ'ib etish va asrab-avaylash, o'zbek madaniyati va fani yutuqlarini xorijda keng namoyish etishni ta'minlash.

5.6. Xalqaro munosabatlarni yanada rivojlantirish sohasida:

❖ insoniyat tamaddunining qadimgi Sharq va G'arbni birlashtiruvchi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy-insonparvarlik sohalaridagi hamkorlik aloqalarini institutsional mustahkamlash va kengaytirishda muhim o'rIN tutadigan Buyuk ipak yo'lini qayta tiklash, kuchli "Buyuk ipak yo'li" brendini ilgari surish siyosatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

❖ Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan oqilona va adolatli foydalanish, bunda mintaqadagi barcha davlatlarning manfaatlarini inobatga olish, shuningdek, xalqaro huquqiy me'yorlar – BMTning Transchegaraviy suv manbalari va xalqaro ko'llarni asrab-avaylash va ulardan foydalanish to'g'risidagi Konvensiyasi (Xelsinki, 1992-yil) va "Kemalar qatnamaydigan xalqaro suv manbalaridan foydalanish huquqi to'g'risida"gi Konvensiyasi (Nyu-York, 1997-yil) qoidalariga amal qilish;

❖ xalqaro munosabatlarda "xalq diplomatiyasi"ni faollashtirish va rivojlantirish, xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining dunyo xalqlari, xorijda yashayotgan vatandoshlarimiz bilan do'stlik va hamkorlikni mustahkamlash, O'zbekiston xalqining tarixi va madaniyati bilan xorijiy mamlakatlar jamoatchiligini tanishtirish borasidagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish;



- ~ milliy qadriyatlarimiz, matonat, jasorat, vatanparvarlik va insonparvarlik asoslarini o'zida yorqin mujassam etgan o'zbek kurashini Olimpiya o'yinlari qatoriga kiritish uchun Xalqaro Olimpiya qo'mitasi bilan aloqani har tomonlama mustahkamlash;
- ~ O'zbekistonning boy madaniy, intellektual merosini targ'ib etuvchi xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, YUNESKO hamda Intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlik qilishni yanada kuchaytirish.



VI. MA'NAVIY-MA'RIFIY SOHADAGI USTUVOR YO'NALISHLAR

“INSON O'ZGARSA, JAMIYAT O'ZGARADI”

*P*artiya milliy o'zlikni anglash, vatandoshlarimizda milliy g'urur va qadr-qimmat tuyg'ularini mustahkamlash maqsadida ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishni muhim vazifa, deb biladi.

O'zbekiston – buyuk alloma va mutafakkirlar Vatani, dunyo tamadduni beshiklaridan biri, jahon moddiy va nomoddiy merosining ajralmas bo'lagi, ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i, yuksak aqliy salohiyatga ega bo'lgan mamlakatdir.

Partiya milliy o'zlikni anglash va tiklash, jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy muhitni saqlash va rivojlantirish orqali siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarda oldimizda turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish mumkin, deb hisoblaydi.

Milliy o'zlikni anglash vatanimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutadi, milliy ong insonda jonajon vatanimizga muhabbat his-tuyg'usini oshirish, komil insonni tarbiyalashda bebaho ichki omildir.

Milliy o'zlikni anglash, inson o'zligini topishi tarixni o'rganishdan boshlanadi. O'zining milliy davlatchilik, milliy madaniyat va ma'naviyat taraqqiyotining tarixiy tajribasini o'zlashtirmagan xalq milliy tiklanishga qodir emas.

O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi vatanimiz yanada shiddatli rivojlanishi uchun raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotga, yuksak ruhiy-ma'naviy asosga, milliy o'zligiga ega bo'lishi shart, deb hisoblaydi.



Partiya milliy-ma'naviy tiklanish va yuksalish, milliy g'oyamiz tamoyilining ustuvorligini ta'minlash, jamiyatimizning axloqiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlash, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida faol ishtirok etishni o'z faoliyatining ustuvor yo'naliishi, deb biladi.

Milliy o'zlikni xalqimizning asrlar davomida shakllangan muqaddas urf-odatlari, an'analari va qadriyatlari asosida saqlash muhim vazifa sanaladi. Bizning qarashimiz, maqsad va vazifalarimiz har qanday millatchilik g'oya-lardan holidir.

Milliy ma'naviyatni ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi negizida yuksaltirish va jahon miqyosida tanitish partiyamizning ustuvor g'oyasidir.

6.1. Milliy madaniyat hamda ma'naviyatni rivojlan-tirish, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni saqlash va boyitish sohasida:

~ xalqimizning tarixiy, madaniy va ilmiy-intellektual merosini asrab-avaylash, boyitish va yanada ko'paytirishga ko'maklashish, o'zbek xalqining boy tarixi va madaniyatini o'rganish, ularni kamol topib kelayotgan yosh avlod o'rtasida keng miqyosda targ'ib etish, yoshlarda tarixiy meros va xalq an'analariga chuqur hurmat, ehtirom uyg'otish;

~ xalqimizga xos muruvvat, mehmondo'stlik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat-ehtirom, bag'rikenglik, yaxshilik va saxovatpeshalik kabi milliy xususiyatlarimiz targ'ibotiga asoslangan loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

~ O'zbekiston tarixini chuqur, keng miqyosda va izchil o'rganishni ta'minlash, bu borada tarixiylik va xolislik tamoyillariga qat'iy amal qilish, tarixiy o'tmish

va o'zbek xalqining hozirgi kundagi hayotiga baho berishda biryoqlama yondashuvlarga, noxolislikka yo'l qo'ymaslik, O'zbekiston tarixini buzib, soxtalashtirib talqin etilishiga nisbatan qarshi kurash olib borish, xalqaro keng jamoatchilik diqqat-e'tiboriga O'zbekistonning tarixiy o'tmishiga doir haqqoniylari haqqatlarni yetkazish;

❖ O'zbekiston xalqining madaniyati va san'ati yutuqlarini xalqaro maydonda keng miqyosda targ'ib etish, hozirgi O'zbekiston zaminida yashab ijod etgan va jahon tamadduni taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at namoyandalari, buyuk davlat arboblari, harbiy sarkardalar hayoti faoliyatiga bag'ishlangan kino asarlari yaratish va ularni dunyo jamoatchiligi diqqat-e'tiboriga yetkazish;

❖ yuksak estetik qimmatga ega bo'lib kelgan milliy hunarmandchilik turlarini qayta tiklash va rivojlantirish, qadimgi badiiy-hunarmandlik maktablari an'analarini saqlab qolish, hunarmandlar maqomini tadbirkorlikdan ajratish;

❖ milliy liboslar va kiyimlar tarixini chuqur o'rganish, milliy liboslar va kiyimlarni targ'ib qilish, ulardan amalda foydalanishni kengaytirish;

❖ gilamdo'zlik maktabini rivojlantirish, "O'zbek gilamdo'zları" Milliy assotsiatsiyasini tashkil etish, "O'zbek gilamdo'zlik muzeyi"ni yaratish, har bir tuman va shaharda tanlov asosida gilamchilik korxonalarini tashkil etish, "o'zbekgilam.uz" internet katalogini yaratish;

❖ O'zbekiston xalqining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy tarixini o'rganishga qaratilgan jamg'armalar tashkil etilishiga erishish.

6.2. Yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo'lgan "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan muhofaza qilish sohasida:

- ~ yoshlarni milliy tiklanish va yuksalish g'oyasi, milliy madaniyat va qadriyatlarni e'zozlash ruhida tarbiyalash;
- ~ faol zamondoshlarimizning badiiy obrazlari ta'sirchanligini kuchaytirishga, milliy-ma'naviy tiklanish va yuksalishga qaratilgan ko'rsatuv va radioeshittirishlarni uyush-tirish, ma'naviy-ma'rifiy markazlar tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirish, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona fondini ko'paytirish, yoshlarni kutubxonalarga keng jalb etish;
- ~ yosh avlodni, birinchi navbatda, kitobga muhabbat va hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalash, ularda matbaachilik mahsulotlariga qiziqishni kuchaytirish, O'zbekiston xalqining tarixi, ma'naviy-madaniy merosiga doir adabiyotlarni nashr etish bilan shug'ullanayotgan mualiflar, bosmaxonalar, nashriyotlarni iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish;
- ~ ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarning mamlakatimizdagi mavjud madaniy-tarixiy maskanlarga ommaviy tashrifflarini uyushtirish, teatr va kinozallarda ochiq eshiklar kunlarini tashkil etish, yoshlarning O'zbekiston tarixi va madaniyati to'g'risida ma'lumotlar beradigan ko'rgazmalarga tashrifini ta'minlash;
- ~ bolalarning ruhiy-ma'naviy dunyosi va madaniy saviyasini o'stirib borish, ularning milliy va jahon musiqa madaniyatining eng yaxshi asarlari bilan oshno bo'lishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarimizning xalqaro nufuzli tanlov va festivallarda ishtirok etib, sovrinli o'rirlarni qo'liga kiritishiga ko'maklashish;

- ~ yoshlarni xalqimizga yot bo'lgan "ommaviy mada-niyat"ning salbiy ta'siridan, ma'nnaviy-axloqiy shakllanishi, qadriyatlari, hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan axborotlardan himoya qilish;
- ~ "Jaholatga qarshi ma'rifat" konsepsiysi doirasida jamiyatda, ayniqsa, yoshlar o'rtasida an'anaviy islom dini prinsiplarini mustahkamlashga qaratilgan targ'ibotni amalga oshirish;
- ~ bolalar uchun ishlab chiqariladigan turli xil oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini ularning sog'lig'i, dunyoqarashi, tarbiyasi, ma'nnaviy saviyasiga ta'siri nuqtayi nazaridan ixtisoslashgan pedagogik-psixologik va tibbiy ekspertizadan o'tkazish tizimini yo'lga qo'yish;
- ~ O'zbekistonning boy tarixi, buyuk allomalar, davlat va siyosat arboblarning ibratli hayotiga bag'ishlangan tarixiy, ommabop filmlar, bolalar uchun multfilmlar yaratilishini rag'batlantirish choralarini ko'rish.

6.3. Milliy, tarixiy-ilmiy madaniyat va manbalarni o'r ganish va targ'ib etish sohasida:

- ~ buyuk ajdodlarimizning ilmiy, falsafiy, ma'nnaviy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy asarlari va qo'lyozmalarini tad-qiq qilish, zamonaviy o'zbek tiliga o'girish tashabbusi bilan chiqish;
- ~ ushbu asarlarni nashr qilish, milliy hamda xalqaro darajada keng targ'ib etish va ommalashtirishga ko'maklashish;
- ~ nodir manba va qadimiy qo'lyozmalar asosida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarni moddiy va ma'nnaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish;

- ~ xalq ijodiyotining noyob namunalari hisoblangan maqom, baxshichilik, lapar, askiya, milliy o'yinlar: kurash, ko'pkari, chavgon va boshqa milliy qadriyatlar maktablarini ustoz-shogird an'analarisi asosida yo'lga qo'yish, bu borada targ'ibot va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish choralarini ko'rish;
- ~ xalqimiz orasida mutolaa madaniyatini rivojlantirish va kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida davlat-xususiy sherikchilik asosida mahallalar, ayniqsa, chekka qishloqlarda kutubxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, ularning fondini badiiy, tarixiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan boyitish choralarini ko'rish;
- ~ O'zbekistonda fan, madaniyat va ta'limni munosib moliyalashtirishni ta'minlash, bunda ushbu sohalar vakillarini munosib rag'batlantirib borish masalasiga alohida e'tibor qaratish;
- ~ teatr, kino hamda musiqa san'ati orqali boy tariximiz, milliy o'zligimiz va qadriyatlarimizni keng targ'ib etish;
- ~ milliy qadriyatlar, an'analar, O'zbekistonning davlat sifatida rivojlanishining tarixiy bosqichlarini aks ettiruvchi badiiy, badiiy-publisistik, hujjatli filmlar, milliy seriallar hamda animatsion filmlar yaratish, ularda tariximizning buyuk siymolari aks etgan obrazlar yaratilishi masalasini davlat tomonidan moliyalashtirish tizimini takomillashtirish;
- ~ ommaviy axborot vositalari, televideniye, radio va ijtimoiy tarmoqlarda milliy madaniyatimizga, avlodlar tarbiyasiga salbiy ta'sir qiluvchi, "ommaviy madaniyat"ni targ'ib etuvchi namoyishlarning oldini olishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirishga oid tashabbuslarni ilgari surish;
- ~ milliy qadriyat va an'analarimizni to'liq xatlovdan o'tkazish asosida isloh etish, ularni yo'qolib borayotgan,

ayni paytda, tiklanishga muhtoj milliy qadriyat va an'analar, milliy qadriyat va an'analarimizga zid, ayni paytda, ommalashgan an'analar, barqaror saqlanishi lozim bo'lgan milliy qadriyat va an'analar kabi turkumlarga ajratish;

❖ nodir va qo'lyozma asarlar saqlanayotgan hamda o'rganilayotgan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti faoliyatini jonlashtirish va kengaytirish, ushbu faoliyatga davlat va xususiy sektor mablag'larini yo'naltirishni rag'batlantirish;

❖ xorijiy mamlakatlarning yozuvchilari tomonidan yaratilgan Vatanimiz tarixi va madaniyatiga aloqador adabiyotlarning ro'yxatini shakllantirib, ularni o'zbek va boshqa tillarga tarjima qilish ishlarini amalga oshirish;

❖ dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning O'zbekiston hududidan tashqarida dafn etilgan joylarini aniqlash, ularning qabr va maqbaralarini obod qilish, shuningdek, yurtimizning turli hududlarida ularning ramziy qabr va maqbaralarini bunyod etish. Jumladan, hozirgi kunda G'aznada Abu Rayhon Beruniy, Qobulda Zahiriddin Muhammad Bobur, Istanbulda Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi, Tunjelida Jaloliddin Manguberdi, Hirotda Alisher Navoiy, Lutfiy, Kamoliddin Behzod, Husayn Boyqaro va boshqalarning qabrlarini, maqbaralarini obod qilish, shuningdek, yurtimizda ramziy qabr va maqbaralarini qurish tashabbusi bilan chiqish.



VII. MADANIY MEROS OBYEKTALARINI MUHOFAZA QILISH HAMDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHHLARI

**“MADANIY MEROSNI SAQLAB,
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNI
UMUMMILLIY HARAKATGA
AYLANTIRISH”**

*P*artiya O'zbekistonning qadimiy shahar va qishloqlari tarixiy qiyofasini muhofaza qilish, butun insoniyatning madaniy merosi bo'lgan tarixiy joylar, arxitektura yodgorliklarini saqlash va qayta tiklash bo'yicha qonunchilik normalarini takomillashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi. Jumladan, Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish institutini qayta tiklash, arxeologik tadqiqotlarni va Arxeologiya institutini moliyalashtirish tizimini isloh etish, shu sohada faoliyat ko'rsatuvchi ilmiy hamda texnik xodimlarni ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur, deb biladi.

Turizm sohasining milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatidagi o'rnini kuchaytirish, mamlakatning ijobiy imijini turizm va investitsiya salohiyati, tarixi va madaniyatini dunyoga targ'ib qilish orqali oshirish, yurtimizni turizm rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish bizning eng asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

Turizm — iqtisodiyotning rivojlanish jarayonini yanada tezlashtiruvchi omil sifatida muhim o'rinn tutadi. Qo'shimcha ish o'rnlari yaratilishiga, iqtisodiy faol aholining bandligini oshirishga, millat farovonligini yuksaltirishga, milliy,



madaniy va ma'naviy qadriyatlarimizni dunyoga targ'ib qilishga xizmat qiladi. Iqtisodiy faoliyatning o'zaro bog'liq bo'lgan qator tarmoqlari, xususan, infratuzilma rivojiga turki bo'ladi, ularning yanada ommaviylashishiga ko'mak beradi.

7.1. Madaniy meros obyektlari muhofazasini kuchaytirish hamda ulardan oqilona foydalanishni tashkil etish sohasida:

- ~ yurtimizda mavjud madaniy meros obyektlarini asrabavaylash, O'zbekiston shaharlарining tarixiy qiyofasini saqlab qolish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ~ Markaziy Osiyo davlatlaridagi tarixiy va mashhur shaharlarni o'z ichiga qamrab olgan Markaziy Osiyo madaniy merosi xaratishni qo'llab-quvvatlash;
- ~ madaniy meros obyektlarining elektron ro'yxati, davlat kadastro, davlat muhofazasiga olinishi va muhofaza chegaralari belgilanishini yakunlash, ularning yo'qolib ketishi yoki buzilishining oldini oluvchi qonunchilik tashabbusini amalga oshirish;
- ~ O'zbekistondagi madaniy meros obyektlarini saqlash, konservatsiyalash, restavratsiya va tiklash ishlari ustidan doimiy parlament va jamoatchilik nazoratini o'rnatish;
- ~ mamlakatimizda muzeysenoslikni rivojlantirish, mavjud muzeylarning moddiy-texnik bazasini zamonaviy, ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida mustahkamlash, ularning moddiy fondini boyitish hamda muzeylar infratuzilmasini kengaytirish;
- ~ barcha madaniy meros obyektlari haqidagi elektron ma'lumotlar bazasini tashkil etuvchi "O'zbekiston madaniy merosi portalı"ni yaratishni qo'llab-quvvatlash;



~ xorijiy davlatlarda saqlanayotgan mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga oid qadimiy qo'lyozma, kitoblar va boshqa osori-atiqalarni aniqlash va tadqiq etish, yurtimizga qaytarish ishlarini jadallashtirish.

7.2. Madaniy meros obyektlari muhofazasining tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish sohasida:

- ~ yangi madaniy meros obyektlarini aniqlash orqali amalda mavjud bo'lgan 8 mingdan ortiq moddiy-madaniy meros obyektlarini 10 mingdan oshirish choralarini ko'rish va uning tashabbuskori bo'lish;
- ~ madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanish ustidan doimiy parlament, deputatlik va jamoatchilik nazoratini o'rnatish va kengaytirish;
- ~ muzey, arxiv, kutubxona va boshqa saqlash joylarida mavjud madaniy meros obyektlarining umumiy ro'yxatini, ularni ro'yxatga olish, saqlash va foydalanish tartibini ishlab chiqish;
- ~ madaniy meros obyektlarini o'rganish, saqlash bilan shug'ullanuvchi xodimlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, moddiy qo'llab-quvvatlash bilan birga ularning bilim va salohiyatlarini oshirish;
- ~ madaniy meros obyektlarining, shu jumladan, te-kinga foydalanishga yoki ijaraga berilgan moddiy-madaniy meros obyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq saqlanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish;
- ~ moddiy-madaniy meros obyektlarining kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish, obyektlar joylashgan yer maydonlarini xo'jalik muomalasidan chiqarish, davlat muhofazasiga olish, qo'riqlanadigan tegralarini, himoya chegaralarini belgilashni yakuniga yetkazish;

- ~ moddiy-madaniy meros obyektlarini tashqi ta'sirdan (yog'ingarchilik, shamol, sho'rланish, yer osti suvlari, zilzila, yo'llar yaqinligi tufayli transport vositalari harakatidan hosil bo'layotgan zirillash va boshqalardan) zararlanishi holatlarining oldini olish va muhofazasini kuchaytirish;
- ~ madaniy meros obyektlarini konservatsiyalash, restavratsiya qilish va tiklash uchun respublika budjetidan ajratiladigan mablag'larni yildan yilga ko'paytirish, mahalliy budjet mablag'lari jalb qilishni ta'minlash;
- ~ madaniy boyliklarni olib chiqish va olib kirish tartibini kuchaytirish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish;
- ~ YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan tarixiy shaharlarning Boshqaruva rejalarini ishlab chiqishni, madaniy merosimizni YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga, Insoniyat nomoddiy-madaniy merosining reprezentativ ro'yxatiga, shuningdek, Jahon xotirasi ro'yxatiga kiritish tashabbusini qo'llab-quvvatlash.

7.3. Turizmni iqtisodiyotning strategik sektori hamda Vatanimiz imijini oshiruvchi omil sifatida jadal rivojlantirish sohasida:

- ~ yurtimizni jahon turizm markazlaridan biriga, turizmni umummiliy harakatga aylantirishga qaratilgan strategik tashabbuslarni amalga oshirish;
- ~ "loukoster" – arzon narxlardagi aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish, shuningdek, mamlakatimizga turistlar oqimi yuqori bo'lgan xorijiy mamlakatlar bilan aviaqatnovlarni ko'paytirish. Sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha tashabbuslar qilish;
- ~ ichki turizmni rivojlantirish, xususan, maktab o'quv-chilari, pensionerlar, tashkilot va muassasalar xodimlarini ichki turizmga jalb etishni rag'batlantirish;



- ~ turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash, qishloq turizmini rivojlantirish, turistlar uchun mo'ljallangan obyektlarning har tomonlama maqbul bo'lishi, xususan, qulay, arzon narxlardagi transport va mehmonxona xizmatlarini yo'lga qo'yish, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni ta'minlash;
- ~ turistik faoliyat manzillarida, xalqaro aeroportlarda, vokzallarda ko'rsatilayotgan servis va xizmatlar sifatini yaxshilash;
- ~ sohadagi mavjud ma'muriy-buyruqbozlikni, xorijiy va mahalliy turistlar uchun rasmiyatchilikni bartaraf etish, xorijiy turistlarni ro'yxatdan o'tkazish, turistlar uchun avtomobil tashuv xizmatlari bilan bog'liq jarayonlarni soddalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ~ davlatning viza berish tartibini soddalashtirishga qaratilgan viza siyosatini davom ettirish, bu borada, ayniqsa, biz bilan uzoq muddatli strategik sheriklik alo-qalarini o'rnatgan va barqaror turistik bozorga ega bo'lgan davlatlardan kelayotgan fuqarolarga e'tibor qaratish, o'zaro vizalar almashish sohasida interaktiv davlat xizmatlarini joriy etish;
- ~ "Turizm to'g'risida"gi yangi qonun, qonunosti huj-jatlari, shuningdek, davlat dasturlarining o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlash ustidan parlament, mahalliy Kengash, deputatlik va jamoatchilik nazoratini o'rnatish.

7.4. Turizm sohasidagi huquqiy bazani takomillashtirish, ushbu yo`nalishdagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rag'batlantirish sohasida:

- ~ turizm sohasiga xususiy sektorni keng jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, turizm bozorida

samarali raqobat darajasini ta'minlash uchun qulay shart-sharoit yaratish;

~ turizm infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish obyektlarini barpo etishda davlat organlari bilan xususiy sektorning o'zaro aloqalarini rivojlantirishning eng samarali vositasi sifatida davlat-xususiy sherikchilik konsepsiyasini amalga oshirish;

~ hududlarda turizmning istiqbolli turlarini rivojlantirish hamda turistlarni jalb qilishda mavsumiy bog'liqliklarni bartaraf etishga qaratilgan animations dasturlarni ishlab chiqish;

~ turizm infratuzilmasi obyektlarida servis xizmati sifatini samarali boshqarishning "Quality controlling" onlayn platformasini ishga tushirish;

~ milliy turistik mahsulot to'g'risidagi tijorat axborotini ommalashtirishning targeting strategiyasini shakllantirish;

~ hududlar turistik brendlari reklamasi jozibadorligini ta'minlash maqsadida kopirayterlar ijodiy ishlari tanlovini tashkil etish;

~ milliy turistik mahsulotni tashqi bozorlarda targ'ib qilishda sotsial-media imkoniyatlarini maqsadli yo'naltirish;

~ O'zbekistonning turistik xizmatlar eksporti geografiyasini kengaytirishda "Revenue management" tahlillaridan foydalanish.

7.5. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish asosida turizm xizmatlari turlarini ko'paytirish, turizm va transport xizmatlari sifatini oshirish sohasida:

~ turizm infratuzilmasi obyektlarini barpo etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish jarayonini soddalashtirish;

- ~ mamlakatning Samarcand, Buxoro, Xorazm kabi an'anaviy turizm markazlaridan boshqa hududlarida ham ularning o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, turizmning yangi turlarini rivojlantirish choralarini ko'rish;
- ~ yo'lovchi tashish tizimida islohotlarni chuqurlashtirish, mahalliy va xorijiy tadbirkorlarni jalb qilish hisobiga raqobatni kuchaytirish va xizmat sifatini oshirish;
- ~ mamlakatda ichki turizmni rivojlantirish, u orqali aholining boy tariximiz, madaniyat, urf-odat, an'ana va qadriyatlarimiz haqidagi bilimlarini oshirish, turizm xizmatlari importini qisqartirish;
- ~ "Har bir oila – tadbirkor" loyihasini turizm sohasiga keng joriy etish.

7.6. O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun eng qulay manzil sifatidagi imijini mustahkamlash sohasida:

- ~ O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini yirik xalqaro turizm bozorlarida targ'ib etishga qaratilgan samarali strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ~ turizm faoliyati subyektlarini rag'batlantirish orqali mamlakat turizm salohiyatini targ'ib qilishga keng jalb etish;
- ~ turizm mahsulotlarini targ'ib etishda internet tarmog'idan, noan'anaviy marketing usullaridan (festivallar harakatini ommalashtirish, xorijiy mamlakatlarda axborot markazlari tashkil etish va b.) keng foydalanishga e'tibor qaratish.

7.7. Turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash hamda turizm sohasi

subyektlarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirish sohasida:

- ~ sohada kadrlar tayyorlash tizimini yanada isloq qilish, xalqaro standartlar talablariga javob beruvchi umummilliy professional ta'limga tizimini (tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirishni) joriy etish;
- ~ turizm sohasidagi ta'limga zamonaviy innovatsion ta'limga standartlarini joriy etish, yuqori malakalari xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;
- ~ O'zbekistonda turizm sohasida mutaxassislar tayyorlovchi yetakchi xalqaro oliy ta'limga muassasalarini filiallarini ochish.

VIII. MILLIY AXBOROT MAKONINI RIVOJLANTIRISH SOHASIDAGI USTUVOR YO'NALISHLAR

“INTERNET JAHON AXBOROT TARMOG'IDA MILLIY KONTENTNI RIVOJLANTIRISH – MILLIY AXBOROT MAKONI TALABI”

*P*artiya milliy axborot makoni va axborot infratuzilmasini rivojlantirmay turib, so'z erkinligi va axborot ochiqligini ta'minlashga erishib bo'lmaydi, deb hisoblaydi.

Partiya milliy axborot-kommunikatsiya sohasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishni o'z faoliyatining davomiy va ustuvor vazifasi deb biladi. Bunday strategiya globallashuv jarayonida xalqimiz madaniyatining asoslari daxlsiz saqlanib qolinishini, uning yanada rivojlanishi, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlari samaradorligi oshirilishini ta'minlashi lozim.

Mamlakat ravnaqi shaxsning mutlaqo mustaqil fikr-lashi, erkinligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Demokratik jamiyatning eng asosiy ko'rsatkichi hisoblangan fikr va so'z erkinligini ta'minlash, Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan so'z erkinligi, shuningdek, tanqid va qarama-qarshi fikrlarga toqatli bo'lish hamda oppozitsiyaga tazyiq o'tkazmaslik g'oyalarini jamiyat hayotiga singdirish tarafdorimiz.

Ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligini ta'minlash, ularni xalq bilan muloqot uchun erkin minbarga aylantirishni qo'llab-quvvatlaymiz. OAVga oid qonunchilik

asoslарини mustahkamlash, bosma va elektron vositalarni davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamlı ishlarni amalga oshiramiz.

Partiya globallashuv sharoitida millatimizning o'ziga xosligini saqlashni ta'minlash, uning xavfsiz axborot rivoji uchun asos yaratish, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat axborot siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda faol ishtirok etish, tashabbuskor bo'lishni o'z faoliyatining ustuvor vazifasi, deb biladi.

Internet jahon axborot tarmog'ida bilimlar, axborot makonini shakllantirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning dunyo-qarashini kengaytirish hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ma'rifiy va foydali veb-resurslarni yaratishni qo'llab-quvvatlaydi.

8.1. Milliy axborot makonini rivojlantirish sohasida:

- ~ ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish va axborot sohasini yanada liberalallashtirish hamda demokratlashtirish, davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlash, aholining axborot madaniyatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

- ~ ochiq axborot makonini yaratish, shu jumladan, xalqaro reytinglarda O'zbekiston Respublikasi egal-lagan o'rnini izchil yaxshilash va mamlakatimizning ommaviy axborot vositalari erkinligi indekslari yuqori darajada bo'lgan ilg'or davlatlar qatoriga kirishini ta'minlash;

- ~ ochiq axborot makoni yaratishning huquqni qo'llash amaliyotini hamda tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslari joriy holatini monitoring qilish, shuningdek, ularni



takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish;

~ milliy axborot resurslarini mazmunan boyitib borish, ularning madaniy, badiiy darajasini oshirish, intellektual va tarbiyaviy xususiyatga ega materiallar kiritilishini rag'batlantirish;

~ milliy ommaviy axborot vositalarining rivojlanishiga yo'naltirilgan faoliyat olib borish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bilan bog'liq loyihalar va dasturlarni amalga oshirishga ko'maklashish;

~ O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini, uning axborot suverenitetini ta'minlashga qaratilgan siyosat yuritish;

~ dolzarb milliy axborot tizimlari va axborot resurslarini shakllantirish hamda rivojlantirish jarayonlariga ko'maklashish, shuningdek, elektron davlat xizmatlari sifati va aholining ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish;

~ bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan, yoshlarni tashqi salbiy axborot xurujlaridan himoya qilish, shuningdek jamiyatimizda konstruktiv kommunikatsiyalar muhitini yaratishga ko'maklashish.

8.2. Milliy axborot makonini barqaror va xavfsiz rivojlantirish sohasida:

~ milliy axborot makonini barqaror rivojlantirish, shu bilan birga, uni ichki va tashqi tahdidlardan himoyalash, axborot xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish;

~ OAV faoliyatiga raqamli, innovatsion va boshqa zamonaliviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarini keng joriy etish;

- ~ bolalar va yoshlarni jismoniy va ma'naviy kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlardan muhofaza qilish ishlarini kuchaytirish;
- ~ barcha turdag'i ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, bosma nashrlarning erkin, sog'lom raqobat muhitida samarali faoliyat yuritishi uchun davlat tomonidan tashkiliy-huquqiy sharoitlarni yaratish;
- ~ jurnalistlar va blogerlarning erkin faoliyat olib borish kafolatini qonunchilikda yanada takomillashtirish, shuningdek, ularning axborot tarqatishdagi mas'uliyatini oshirish;
- ~ OAV sohasida xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash salohiyatini oshirish, OAVda raqobat muhitini yaratish;
- ~ O'zbekistonning xalqaro maydonidagi ijobiyligi imijini mustahkamlash bo'yicha axborot sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish, shu jumladan, davlatimizning iqtisodiy imkoniyatlari, investitsion jozibadorligi, turizm salohiyati, madaniy-ma'rifiy, badiiy-ilmiy merosi bilan bog'liq axborotlar hajmini jahon miqyosida keskin ko'paytirish maqsadida alohida milliy dastur ishlab chiqish va uni tizimli ravishda amalga oshirib borish;
- ~ xorijiy ommaviy axborot vositalarida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, Vatanimizning madaniyati, san'ati va milliy qadriyatлari haqidagi xabarlar salmog'ini oshirish;
- ~ axborotning to'g'ri va xolisligini ta'minlash maqsadida mamlakatning chet ellardagi muxbirlik punktlari faoliyatini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish, "Xalqaro mega-infotur" anjumanlarini o'tkazish;



- jahoning global axborot makonidagi media tuzilmalar bilan teng raqobat qila oladigan Milliy media-xolding va boshqa axborot korporatsiyalariga asos solish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- aholi, ayniqsa, yosh avlodda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish;
- ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatish mas'uliyatini oshirish va uni tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish.



**O'zbekiston "Milliy tiklanish"
demokratik partiyasining
2020–2024-yillarga mo'ljallangan
Saylovoldi dasturiga 1-ilova**

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va deputatlari tomonidan 2020–2024-yillarda ishlab chiqish yoki tashabbus qilish rejalashtirilgan qonun loyihalari:

I. Davlat hokimiyyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, ma'naviy barkamol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasida:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xizmatlari to'g'risida"gi qonun loyihasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat nazoratiga moratoriyl to'g'risida"gi qonun loyihasi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari (reglamenti) to'g'risida"gi qonun loyihasi.
4. O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari mahalliy Kengashlar nazorati to'g'risida"gi qonun loyihasi.
5. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari bo'yicha vakil to'g'risida"gi qonun loyihasi.

II. Mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini tubdan isloh etish sohasida:

6. O'zbekiston Respublikasining Advokatura kodeksi loyihasi.



7. O'zbekiston Respublikasining "Huquqiy ekspertiza to'g'risida"gi qonun loyihasi.
8. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularnning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi qonun loyihasi.
9. O'zbekiston Respublikasining "Bepul yuridik yordam to'g'risida"gi qonun loyihasi.
10. O'zbekiston Respublikasining "Huquqni buzganlik uchun kompensatsiya to'g'risida"gi qonun loyihasi.
11. O'zbekiston Respublikasining "Jinoyatdan jabr ko'rganlarni reabilitatsiya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi.
12. O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy ishlar bo'yicha xalqaro hamkorlik to'g'risida"gi qonun loyihasi.
13. O'zbekiston Respublikasining "To'y, oilaviy tantana va marosimlarni o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qonun loyihasi.

III. Milliy iqtisodiyot, ishlab chiqarish va innovatsiyani rivojlantirish sohasida:

14. O'zbekiston Respublikasining Bank kodeksi loyihasi.
15. O'zbekiston Respublikasining Transport kodeksi loyihasi.
16. O'zbekiston Respublikasining "Turizm faoliyatini rag'batlantirish to'g'risida"gi qonun loyihasi.
17. O'zbekiston Respublikasining "Hunarmandchilik faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi.
18. O'zbekiston Respublikasining "Savdo faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi.

19. O'zbekiston Respublikasining "Sanoat siyosati asoslari to'g'risida"gi qonun loyihasi.
20. O'zbekiston Respublikasining "Daromadlarni ixtiyoriy deklaratsiya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi.
21. O'zbekiston Respublikasining "Asalarichilik to'g'risida"gi qonun loyihasi.
22. O'zbekiston Respublikasining "Baliq ovlash (baliqchilik) to'g'risida"gi qonun loyihasi.
23. O'zbekiston Respublikasining "Don va uni qayta ishlovchi mahsulotlar to'g'risida"gi qonun loyihasi.
24. O'zbekiston Respublikasining "Organik ishlab chiqarish to'g'risida"gi qonun loyihasi.

IV. Madaniyat va ma'naviyat, ijtimoiy soha, ta'llim-tarbiya tizimini tubdan isloh etish sohasida:

25. O'zbekiston Respublikasining Ta'llim kodeksi loyihasi.
26. O'zbekiston Respublikasining Madaniy meros kodeksi loyihasi.
27. O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash kodeksi loyihasi.
28. O'zbekiston Respublikasining "Tarbiya asoslari to'g'risida"gi qonun loyihasi.
29. O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonun loyihasi.
30. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi yozuvlar to'g'risida"gi qonun loyihasi.
31. O'zbekiston Respublikasining "Teatr va teatr faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi.

32. O'zbekiston Respublikasining "Kinematografiya to'g'risida"gi yoki "Kino san'ati to'g'risida"gi qonun loyihasi.

33. O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonun loyihasi.

34. O'zbekiston Respublikasining "Xalq tabobati to'g'risida"gi qonun loyihasi.

35. O'zbekiston Respublikasining "Internetda ijod mahsulotlarini tarqatish va himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi.

36. O'zbekiston Respublikasining "Milliy sport turlari va xalq o'yinlari to'g'risida"gi qonun loyihasi.

37. O'zbekiston Respublikasining "Ko'ngillilar faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi.

V. Tashqi siyosat, xavfsizlik hamda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida:

38. O'zbekiston Respublikasining "Migratsiya to'g'risida"gi qonun loyihasi.

39. O'zbekiston Respublikasining "Etnik madaniyatni davlat tomonidan himoya qilishning asoslari to'g'risida"gi qonun loyihasi.

40. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonun loyihasi.

41. O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonun loyihasi.

VI. Milliy axborot makonini rivojlantirish sohasida:

42. O'zbekiston Respublikasining Axborot kodeksi loyihasi.
43. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilikning elektron ishtiroki to'g'risida"gi qonun loyihasi.
44. O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatish va jamoatchilik muhokamasi tartibi to'g'risida"gi qonun loyihasi.
45. O'zbekiston Respublikasining "Teleradioeshittirish to'g'risida"gi qonun loyihasi.

**O'zbekiston "Milliy tiklanish"
demokratik partiyasining
2020–2024-yillarga mo'ljallangan
Saylovoldi dasturiga 2-ilova**

**O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi
va deputatlari tomonidan 2020–2024-yillarda ishlab
chiqish yoki tashabbus qilish rejalashtirilgan
konsepsiylar, strategiyalar va dasturlar loyihalari:**

1. Milliy g'oya Konsepsiysi loyihasi.
2. Uzluksiz tarbiya asoslari Konsepsiysi loyihasi.
3. Milliy urf-odat, an'analar va qadriyatlarni saqlashni kuchaytirish va rivojlantirish Konsepsiysi loyihasi.
4. Davlat va jamiyat boshqaruvini yanada takomil-lashtirishning o'rta va uzoq muddatli Milliy dasturi loyihasi.
5. Jamiyatda inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish Konsepsiysi loyihasi.
6. Jamiyatda tibbiy madaniyatni yuksaltirish, "Sog'lom inson – sog'lom millat" Konsepsiysi loyihasi.
7. Aholining turmush madaniyatini oshirish Konsepsiysi loyihasi.
8. O'zbekistonda xalq tabobatini rivojlantirish Konsepsiysi loyihasi.
9. Jamiyatda milliy musiqa va milliy estrada san'atini rivojlantirish Milliy dasturi loyihasi.
10. Sportning kurash, boks va futbol turlarini tubdan rivojlantirish Konsepsiysi loyihasi.

11. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va asosiy tamoyil-larini joriy etish Konsepsiysi loyihasi.
12. Jamiyatda siyosiy ong va siyosiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi loyihasi.
13. Jamiyatda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash Konsepsiysi loyihasi.

**O'zbekiston "Milliy tiklanish"
demokratik partiyasining
2020–2024-yillarga mo'ljallangan
Saylovoldi dasturiga 3-ilova**

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va deputatlarining qarorlar bilan tasdiqlangan, 2020–2024-yillarda ijro etilishi belgilangan konsepsiylar, strategiyalar va dasturlar ijrosi ustidan jamoatchilik, deputatlik va parlament nazoratini amalga oshirish rejasি:

1. 2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi.
2. 2019–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiysi.
3. 2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish Strategiyasi.
4. 2019–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiysi.
5. 2019–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiysi.
6. 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish Konsepsiysi.
7. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi.
8. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi.

9. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.
10. O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash Konsepsiyasi.
11. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish Konsepsiyasi.
12. O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi.
13. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi.
14. Har yili qabul qilinadigan yillik Davlat dasturlari, hududiy dasturlar, davlat budgeti, shuningdek, 2020–2024-yillarda qabul qilinadigan yangi konsepsiyalar, strategiyalar va dasturlar.

**O'zbekiston "Milliy tiklanish"
demokratik partiyasining
2020–2024-yillarga mo'ljallangan
Saylovoldi dasturiga 4-ilova**

**O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi
va deputatlarining 2020–2024-yillarda amalga oshiradigan
asosiy partiyaviy loyihalari, respublika va
xalqaro tadbirlari, ko'rik-tanlovlari:**

1. Deputatlik faoliyatining ochiq va oshkorligini ta'minlashga qaratilgan "**Xalq xizmatchisi**" media loyihasi.
2. Yoshlarni parlament va qonun ijodkorligi jarayoni bilan yaqindan tanishtirishga qaratilgan "**Yoshlar parlamenti**" sayohat loyihasi.
3. Deputatlarning aholi bilan doimiy aloqasini o'rnatish hamda murojaatlarini joyida hal etishga qaratilgan "**Deputat bilan yuzma-yuz**" ochiq muloqot va "**Parlament – xalq uyi**" sayyor qabul loyihalari.
4. Kadrlarning yetakchilik qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan "**Liderlar onlayn maktabi**" loyihasi.
5. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan "**Biz korrupsiyaga qarshimiz!**" aksiyasi.
6. Iqtisodiyot va ma'naviyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini rivojlantirishga qaratilgan an'anaviy "**Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!**" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.
7. An'anaviy "**O'zbek milliy liboslari**" ko'rgazmasi hamda "**O'zbek milliy liboslari: kecha, bugun va ertaga**" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.

8. Yoshlarga qo'shimcha bepul ta'lif va kasb-hunar berishga qaratilgan "**Xizmat – beminnat**" ko'ngilli ziyoililar loyihasi.

9. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan "**XXI asr ayoli**" yetakchi xotin-qizlar tanlovi.

10. Oilaviy mutolaa madaniyatini rivojlantirish maqsadida har bir xonadonda, qurilayotgan yangi turar joy loyihalarda "**Har bir oilada kutubxona**" loyihasi.

11. Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni erta aniqlashga qaratilgan "**Intellektual yoshlar**" respublika maqolalar tanlovi.

12. Tibbiy madaniyatni oshirishga qaratilgan "**Sog'lom inson – sog'lom millat**" profilaktik mega loyihasi.

13. Har bir mahalla kesimida uyushmagan, tayin bir mashg'ulotga ega bo'limgan, ishlamaydigan va chet elga chiqib ketgan yoshlar va xotin-qizlarning xonadonlariga borib, ularning muammolarini o'rGANISH va hal etishga qaratilgan "**Uyma-uy**" loyihasi.

14. Davlat tilini boyitish va yanada takomillashtirishga qaratilgan "**Sof o'zbek tilida**" jamoatchilik nazorati aksiyasi.

15. Navoiy ijodini tom ma'noda xalq mulkiga aylantirish hamda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarini, shu fanga qiziqqan yoshlarni rag'batlantirishga qaratilgan "**Navoiy vorislari**" ("**Yuz minginchi Navoiy vorisi**") respublika ko'rik-tanlovi.

16. Xalq tabobatini rivojlantirishga qaratilgan "**Ibn Sino avlodlari**" ko'rik-tanlovi.

17. Xalqimizning folklor san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shish, milliy g'urur hislarini to'laqonli singdirishga qaratilgan "**Alla**" festivali.



18. Mamlakatimizning milliy tiklanishi va yuksalishiga munosib hissa qo'shayotgan oddiy xalq vakillari, ziylolarning ibratli hayot yo'llarini keng targ'ib etishga qaratilgan "**Millat**" teleloyihasi.
19. Millatlararo totuvlik, birdamlik va yakdillikni yanada mustahkamlashga qaratilgan an'anaviy "**Ko'p millatli yagona oila**" loyihasi.
20. O'zbekistondan tashqarida istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizning huquq va manfaatlari muhofazasiga qaratilgan "**Vatandoshga suyanchmiz**" loyihasi.
21. "**Madaniyat, san'at, turizm sohasining buguni va istiqboldagi vazifalar**" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.
22. O'zbek milliy maqomchilik san'atini rivojlantirishga qaratilgan an'anaviy "**Maqomot**" musiqa festivali.
23. Bolalar qo'shiqchilagini rivojlantirishga qaratilgan an'anaviy "**Sohir ovoz**" bolalar milliy qo'shiqlari tanlovi.
24. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan faxriylarni e'zozlash, "Saxovat uyi"da yashayotgan qariyalarni qadrlashga qaratilgan an'anaviy "**Ziyorat karvoni**" ma'rifiy loyihasi.
25. Har bir tuman va shaharning turistik brendlарini ishlab chiqishga qaratilgan an'anaviy "**Uzb-brend**" ko'rik-tanlovi.
26. O'zbek milliy madaniyati namunalarining jahon brendlарini yaratishga qaratilgan "**O'zbegim**" rasmlar tanlovi.
27. Mamlakatimiz turistik salohiyatini virtual olamda turistlar ishtirokida keng targ'ib etishga qaratilgan "**Onlayn gid**" tanlovi.

28. Milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirishga qaratilgan **“Qo'lli gul usta”** hunarmandlar tanlovi.

29. Milliy internet segmentini rivojlantirish sohasida faoliyat yuritayotgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, internet tarmog'idagi ochiq veb-resurslarda, jumladan, “Wikipedia” onlayn ensiklopediyasida O'zbekiston Respublikasi to'g'risidagi obyektiv axborotlarni ko'paytirishga qaratilgan **“Talabalar internet harakati”** loyihasi.

O'zbek milliy fotografiya san'atini rivojlantirish, eng sara ijod namunalarini ijtimoiy tarmoqlarda ommalashtirish, jahon internet kontentini milliy mazmundagi rasmlar va siymolar bilan boyitishga qaratilgan **“Milliy rasmlar fotobanki”** va www.milliyrasmlar.uz saytini yaratish loyihasi.

Partiya elektoratining xohish-istiklalarini, ijtimoiy kayfiyati hamda ehtiyojlarini ilmiy tadqiq etishga qaratilgan **“Xalq fikri”** ijtimoiy so'rovlar loyihasi.

30. O'zbekistonda fuqarolik jurnalistikasini rivojlantirish, partiya e'tibor qaratadigan ustuvor masalalardagi mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan **“Blogerlar ligasi”** loyihasi.

**O'zbekiston "Milliy tiklanish"
demokratik partiyasining
2020–2024-yillarga mo'ljallangan
Saylovoldi dasturiga 5-ilova**

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiya-sining ustuvor vazifalarini maqsadli amalga oshirishga qaratilgan yil oylarini nomlash:

1. **YANVAR** – “Vatanga sadoqat oyligi”.
2. **FEVRAL** – “Milliy madaniyat va san'atni, hunar-mandchilikni rivojlantirish oyligi”.
3. **MART** – “Milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni saqlash va boyitish oyligi”.
4. **APREL** – “Turizmni targ'ib etish va rivojlantirish oyligi”.
5. **MAY** – “Oilani mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni va an'analarni ardoqlash oyligi”.
6. **IYUN** – “Xorijdagi vatandosh oyligi”.
7. **IYUL** – “Madaniy merosni muhofaza qilish oyligi”.
8. **AVGUST** – “Milliy mustaqillikni mustahkamlash oyligi”.
9. **SENTABR** – “Uzluksiz ta'lim va tarbiya oyligi”.
10. **OKTABR** – “O'zbek tili va adabiyoti oyligi”.
11. **NOYABR** – “Tibbiy madaniyatni oshirish oyligi”.
12. **DEKABR** – “Huquqiy, siyosiy ong va madaniyatni oshirish oyligi”.





**O'ZBEKISTONNING YORQIN KELAJAGINI YARATISH,
INSONNI O'ZGARTIRISH ORQALI JAMIYATNI
O'ZGARTIRISH –
BOSH MAQSADIMIZ !**

**INSON MANFAATLARINI TA'MINLASH –
ASOSIY VAZIFAMIZ !**

**XALQIMIZ BILAN HAMNAFAS BO'LISH –
MAJBURIYATIMIZ !**

**XALQIMIZGA SADOQAT BILAN XIZMAT QILISH –
FAOLIYATIMIZ ASOSIDIR !**

**O'ZBEKISTON “MILLIY TIKLANISH”
DEMOKRATIK PARTIYASI VA DEPUTATLARI**

**JONAJON VATANIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN
ISLOHOTLARNING NAFAQAT ISHTIROKCHISI,
TASHABBUSKORI HAMDA IJROCHISI BO'LADI!**

HURMATLI SAYLOVCHILARI!

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi uchun saylovda ishtirok etish bu, eng avvalo, o'zining saylangan vakillari orqali davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etishni anglatadi.

Partiyamizdan ko'rsatilgan nomzodlarning hokimiyat vakillik organlariga saylanishi bu nafaqat saylovchilarning yuksak ishonchi, balki yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi yo'lida faol va fidokorona mehnat qilishga shaylangan bo'lajak deputatlarga berilgan imkoniyatdir.

Partiyadan hokimiyat vakillik organlariga ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlarning ushbu 2020–2024-yillarga mo'ljallangan saylovoldi Dasturi va undagi tashabbuslar jonajon Vatanimizni birgalikda taraqqiy ettirishga taklifdir.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2020–2024-yillarga mo'ljallangan saylovoldi Dasturida belgilangan barcha yo'nalishlar bo'yicha tashabbuslar bu islohotlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishning debochasi ekanini alohida ta'kidlaymiz.

Partiyamiz aniq va samarali natijalarga erishish uchun barchangizni shu aziz va betakror jonajon O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida bor kuch va bilimingizni safarbar etib, fidokorona mehnat qilishga, tashabbuskor bo'lishga chorlamoqda.

Biz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!" sidqidildan xizmat qilishga tayyormiz!

Ishoning, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi nomzodlariga bergen ovozingiz – bu Sizning oqilona tanlovingiz!

Taraqqiyotga birgalikda boramiz, istiqbolni hamjihatlikda barpo etamiz!

**BIRMZ!
QO'LNI QO'LGA BERAMIZ!**

MUNDARIJA

Muqaddima.....	3
I. Davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, ma'nnaviy barkamol fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	8
II. Mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh etishning ustuvor yo'nalishlari	15
III. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	21
IV. Ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatda ta'limgar tarbiya tizimini tubdan isloh etishning ustuvor yo'nalishlari	28
V. Tashqi siyosat, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlar.....	40
VI. Ma'nnaviy-ma'rifiy sohadagi ustuvor yo'nalishlar	48
VII. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish hamda turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	55
VIII. Milliy axborot makonini rivojlantirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.....	63
Ilovalar.....	68

